

IX

Erkin Ro'zimatov



# YANGI MAQOM NAMUNALARI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI**  
**O‘ZBEK MILLIY MAQOM SAN’ATI MARKAZI**  
**YUNUS RAJABIY NOMIDAGI**  
**O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN’ATI INSTITUTI**

**Erkin RO‘ZIMATOV**

# **YANGI MAQOM**

# **NAMUNALARI**

(Ixtisoslashtirilgan maqom, musiqa va san`at maktablari uchun)

**O‘QUV QO‘LLANMA**

I qism kitob



O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

Toshkent - 2024

УДК 784.4(=512.133)(075.8) R 99

КБК 85.315(50')ya73 R 99

*Erkin Ro'zimatov. Yangi maqom namunalari / o'quv qo'llanma.*

#### MAS'UL MUHARRIRLAR:

**Soibjon Begmatov** – San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor, O'zbek milliy maqom san'ati markazi bosh direktori

**Azizjon ZOKIROV** – Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutining o'quv ishlari bo'yicha prorektori, dotsent.

#### TAQRIZCHILAR:

**Isroiljon Vahobov** – O'zbekiston xalq xofizi, O'zbek milliy maqom san'ati markazi “Ustoz-shogird maktabi” bo'limi yetakchi ilmiy boshlig'i.

**Rifatilla Qosimov** - Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI “Maqom cholg'u ijrochiligi” kafedrasida professori.

**Nuriddin AMINJON** - O'zbek milliy maqom san'ati markazi yetakchi ilmiy xodimi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.

**Nodira Pirmatova** - Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI “Maqom xonandaligi” kafedrasida mudiri, dotsent

**Azizbek HAKIMOV** - O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

**Ulug'bek Mamadjanov** – Farg'ona ixtisoslashtirilgan maqom maktab-internati direktori

**Shavkat Matyoqubov** - Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI “Maqom xonandaligi” kafedrasida dotsenti.

**Akmal Safarov** – O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a'zosi, “Kelajak bunyodkori” medali sohibi, kompozitor.

**Dilmurod O'roqboyev** – Samarqand viloyati, Bulung'ur tumani 9-son bolalar musiqa va san'at maktabi o'qituvchisi.

#### NASHR UCHUN MAS'UL VA NASHRGA TAYYORLOVCHI:

**Sardor Tojiboyev** – Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti “O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasida katta o'qituvchisi.

Ushbu kitob O‘zbekiston xalq hofizi,  
professor Mahmudjon Tojiboyevning  
porloq xotirasiga bag‘ishlanadi.

### MUALLIFDAN

Assalomu alaykum, kitobimizni varaqlayotgan aziz ustozlar, hamkasblar,  
shogirdlar va hurmatli muxlislar!

Qo‘lingizdagi ushbu to‘plamni tayyorlash uchun ko‘p yillardan beri niyat va  
harakat qilib kelar edik. Allohga shukr, va nihoyat, siz azizlarga taqdim qilish  
nasib etdi.

Xizmat taqozosi bilan turli tanlovlar va konsertlarda ishtirok etganimizda  
bolajonlarimiz ijro etayotgan mumtoz qo‘shiqlar matni ular uchun anchayin  
murakkab ekanligini, aksariyat mumtoz qo‘shiqlarning mazmunan bolalar va  
o‘smirlar yoshiga munosib emasligini, ayrim so‘zlarni anglab-anglamay noto‘g‘ri  
talaffuz qilishlari natijasida ma‘noga jiddiy putur yetayotganini kuzatdik. Shu  
masala barcha maqom ustozlarini, meni ko‘p o‘ylantirar edi. Bu borada O‘zbek  
milliy maqom markazi ustozlarining sa‘y-harakatlari ham bo‘lib, ayniqsa, marhum  
ustozimiz O‘zbekiston xalq hofizi, professor Mahmudjon Tojiboyev bu masalada  
ish boshlagan edilar. Ming afsus, oxiriga yetkazish nasib qilmagan ekan. Biz,  
avvalo, milliy maqomlarimizning yuksak maqomini saqlagan holda  
yoshlarimizning muammosiga ijodiy-ijobiy yechim topish, qolaversa, ustoz  
boshlagan ishni davom ettirish orqali u kishining ruhini shod qilish maqsadida ana  
shu xayrli ham zavqli, ham mashaqqatli mehnatni o‘z zimmamizga oldik. Bu  
mas‘uliyatli vazifani ado etishda O‘zbek milliy maqom markazining direktori,  
musiqashunos olim, professor Soibjon Begmatov hamda markazning “Ustoz-  
shogird maktabi” bo‘limining ustozlari tavsiya va ko‘maklariga tayandik.

Sir emaski, muhtaram Prezidentimiz maqom san‘atiga, ayniqsa, yoshlarga  
milliy san‘atimiz an‘analarini singdirish orqali milliy o‘zligimizni asrab-  
avaylashga katta e‘tibor bilan qaraydilar. So‘nggi yillarda sohani rivojlantirish  
maqsadida qabul qilingan qator qaror va farmonlar ham fikrimizning yorqin dalili  
bo‘la oladi. Biz – ustozlar esa ana shu hamfikrlikdan, e‘tibor va ehtiromdan  
ruhlangan holda maqomchilik an‘analarini nafaqat asrash, balki uning rivoji uchun  
baholu qudrat hissa qo‘shishga ahd qildik.

Har bir ishda ham dastlabki urinishlar xato-kamchilikdan holi bo'lmisligi mumkin, albatta. Shu boisdan ustoz murabbiylar, soha mutaxassisleri bizning bu qo'llanmamizni ilk qadam sifatida baholab, kam-ko'stlarini tuzatish va to'ldirishda do'stona yondashib, o'z maslahatlarini berishsa, nur ustiga a'lo-nur bo'lar edi. Shu yo'l bilan kelajak avlodlarimizning milliy maqom, xalq qo'shiqlari va ustozlar yaratgan asarlarni puxta egallashiga o'z hissamizni birgalikda qo'shgan bo'lamiz.

Ijodiy jarayon haqida ikki og'iz so'z. Tan olish kerakki, bolalar va o'smirlarning yoshlariga, ovoz imkoniyatlariga, matnni anglash darajalariga mos va xos so'zlarni izlab topish, musiqaga uyg'unlashtirish ishlari o'ziga yarasha mashaqqat bilan kechdi. Chunki bu jarayonda, avvalo, musiqaning originalligini saqlash mas'uliyati bor. Ota-ona, do'stlik, ustoz, Vatan, go'zal tabiatimizni tarannum etuvchi dilga yaqin, ohangi ravon, lug'atga qaramay ham tushunsa bo'ladigan satrlarni saralar ekanmiz, birinchi navbatda, Habibiy, Chustiy, H.Olimjon, E.Vohidov, Sh.Hakimiy, A.Isroilov, G'.Ro'ziboyev, M.Yusuf singari ustoz shoirlar bisotiga murojaat qildik. O'rni kelganda aytib o'tish joizki, ustoz shoirlarning ayrim dilbar satrlarida ilgarigi davr chizgilariga duch keldik va ularning haqlariga duo qilgan holda ana shunday satrlarni bugungi kun ruhida biroz tahrir qilishga jazm etdik. Umid qilamizki, bu tahrirlar asarning umumiy mazmuni va saviyasiga, yuksak badiiyatiga mutlaqo shikast yetkazmadi. Shuningdek, O'zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Nuriddin Aminjonov, Muhayyo Mirsaidova, buxorolik Abdunabi Hamro, namangonlik Dilorom Ergasheva va Azizbek Hakimov singari zamondosh shoirlarimizning ijod namunalari ham kitobimizni bezab turibdi.

Qo'shiqlarni nota yozuviga ko'chirishda katta jonbozlik ko'rsatgan mutaxassislarimiz Nodirbek Maxarov, Akmal Safarov va Dilmurod O'roqboevlarning mehnatlarini har qancha e'tirof etsak-da oz, mening nazarimda.

Zamon bilan hamnafaslik ma'nosida, nota yozuvi hamda matn mujassam bo'lgan, ushbu qo'llanmaga elektron ijro yozuvini ilova qildik-ki, avvalo davr talabi, qolaversa bu ustozlarga ham, o'quvchi-o'rganuvchilarimizga ham yanada qulaylik tug'dirishi shubhasiz. Mazkur ijrolarni yozib olishda ko'p sonli ijodiy guruhlar bizga yaqindan yordam berishdi. Jumladan, Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabi direktori Asilbek Xudoynazarov hamda ustozlari Ahrorxo'ja Muydinov va Dilshod Toshaliyev, shu maktab o'quvchilari Afro'za Yunusaliyeva, Durdoni Usmonova, Dilnura Pardayeva, Xushnura Ibrohimova, Ozodbek Tursunov, Lochinbek Ismoilov, Xurshidbek Nabiyev, Jahongir Xotamovlar bilan bir qatorda ustoz sozandalar Abdug'affor Rahimov, Ma'rufjon Ortiqov, Otabek Qodirov, Xalilulloh Mirzaxo'jayev, Azizbek Mirzahaitovlarning juda katta hissalarini bo'ldi.

Shuningdek, Farg'ona ixtisoslashtirilgan maqom maktab-internatining direktori Ulug'bek Mamadjonov va ustozlari Isfandiyor Botirov boshchiligidagi o'quvchilar jamoasi: Ruxshona Ismoilova, Dilnura Rahmatillayeva, Intizor Abdujabborova, Mubinaxon Po'latovalarning ham ko'maklari e'tirofga loyiq. Va yana Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutining maqom xonandaligi kafedrası ustozlari Shavkatjon Matyoqubov, Jaloliddin Matyoqubov, Nozimjon Islomovlarga hamda ularning talaba shogirdlari Shukronabonu Odilova, So'g'diyonabonu Razzakova, Zarnigor Majitova, Roziyaxon Komiljonova, Sevinch Eshmatovalarga ham alohida minnatdorlik bildiramiz.

V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi ustози, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Nasibaxon Sattorova hamda u kishining o'quvchi shogirdlari: Dilnura Abdumalikova, Bahora Narziyeva, Shonazar Qobulovlarga; Toshkent viloyati ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi rahbari Umidjon Rohatov, shu maktab sozandalari Hamza Allanazarov, Kamoliddin Mullajonov, Azamat Turg'unboyev, Lazizjon Mamajonov, Munis Sa'dullayev, Otaxon Tojiboyev, Sunnatilla Ibragimov, Baxtiyor Tursunaliyevlarga va o'quvchilari Marhaboxon Qodirova, Sabohat Kamolova, Muhammadazim Mahmudov, Xudoyberdi Oripovlarga ham diltortar ijrolari uchun tashakkur aytishga burchlimiz.

Ushbu o'quv qo'llanmamizga xalq va bastakorlik ijod namunalaridan ham keltirib o'tdik. Jumladan, O'zbekiston xalq artistlari Habiba Oxunova, Muhabbat Shamayeva, Zamira Suyunova, yoshlik chog'idanoq el nazariga tushgan xalq ardog'idagi ustoz san'atkor Sanobar Rahmonova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Nodira Pirmatova, Mohichehra Shomurodova, honanda Xonzoda Fazliddinova, kamina ijodkoringizni ham ijodiga mansub ayrim bastalagan hamda ijrolaridagi ijod namunalarini esa o'z ijrolarida keltirib joyladik, toki bu ijrolar o'quvchi uchun o'ziga xos mahorat darslari bo'lsin.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, asarlarning, ayniqsa maqom ijrolarimizning ayrimlarida o'ziga xos baland avjlar bor. Biz ularni asl holida ijro qildik, o'quvchilar esa o'z ovoz imkoniyatlaridan kelib chiqib yondashishlari, ustozlarning bu boradagi tavsiyalarini inobatga olishlari lozim. Yana bir muhim tavsiya shundan iboratki, ijrolarda ba'zi so'zlar noaniq talaffuz qilingan bo'lishi extimoldan xoli emas.

Aziz o'quvchi! O'rganish jarayonida matnlarni, albatta, zukkolik va sinchkovlik bilan kuzating.

So'zim yakunida barchamizga Yaratgandan ustozlarga ato etilganiday yorug' yo'l tilab qolaman.

## KIRISH

O‘zbek milliy musiqa merosining asrlar davomida ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelishida atoqli sozandayu hofiz va bastakorlarning xizmatlari beqiyos. Musiqa merosimizning gultoji hisoblanmish maqom san’ati zabardast ijod ahlining uzluksiz izlanishlari, rivojlantirishlari zamirida hosil bo‘lgan umrboqiy navolar desak o‘rinli bo‘ladi. Atoqli hofiz-u, sozandalarimizning ijrochilik bilan birga bastakorlik faoliyatlari davomida maqom ashula va cholg‘u yo‘llari rivojlanib turkum asarlar shakliga kelganligi ko‘pchilikka ma’lum.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3391-son Qarorida: – “Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lgan milliy maqom san’ati o‘zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an‘analari bilan ma’naviy hayotimizda alohida muhim o‘rin egallaydi.

Asrlar davomida ulug‘ shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoiyligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san’at nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuhrat va e’tibor qozongan. Maqom san’atining gultoji bo‘lgan “Shashmaqom” YuNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e’tirof etilgani hamda uning Rerezentativ ro‘yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig‘idir”<sup>1</sup> – deb ta’kidlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son qarorida ham “Tarixiy va madaniy merosimizni saqlash hamda uni yosh avlod tarbiyasida keng qo‘llash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirish, etnik madaniy an‘analarni asrab-avaylash va shu asosda xalq ijodiyotini qo‘llab-quvvatlash”<sup>2</sup> kabi asosiy vazifalar belgilab berildi.

Milliy musiqa merosimiz hazinasi juda qadimiyligi bilan ajralib turadi. Yuqoridagi qarorlarni inobatga olgan holda, milliy merosimizni asrab avaylash kabi vazifalarni egallagan holda, maqomchilik san’ati madaniy merosini asrab avaylab kelgusi avlodga yetqazish, ularni merosini yosh avlodga tanitish, asosiy omilimizdir. Har bir davrda o‘ziga xos yetuk soha vakillari mavjud bo‘lgan.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3391-son Qarori

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son qarori



Ayniqsa, XIX-asrning ikkinchi yarmi va XX-asrda yashab ijod etgan Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'aniyev, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Sodirxon Hofiz Bobosharipov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Yunus Rajabiy, To'xtasin Jalilov, Matyoqub Xarratov, Imomjon Ikromov, Hojixon Boltaev, Jo'raxon Sultonov, Saidjon Kalonov, Faxriddin Sodiqov, G'anijon Toshmatov, Nabijon Xasanov, Doni Zokirov, Muxtorjon Murtazoyev kabi atoqli san'at namoyondalari qoldirgan musiqiy asar namunalari bu fikrimizga yorqin misol bo'la oladi. Keyinchalik, yuqorida nomlari faxr bilan tilga olingan ustozlar an'analarini o'z ijodlari orqali ibratomuz davom ettirgan zabardast sozanda, hofiz va bastakorlar Komiljon Otaniyozov, Orifxon Xotamov, Orif Alimahsumov, Tavakkal Qodirov, Fattohxon Mamadaliyev, G'ulomjon Xojiqulov, Yunusqori Yusupov singari xalqimizning ardoqli san'atkorlari qoldirgan musiqiy meroslari ham ma'naviy boyligimiz xazinasidan munosib o'rin oldi. Vohalarimizga xos bo'lgan Farg'ona-Toshkent maqom ashula yo'llariga mansub Bayot, Dugoh Husayniy, Chorgoh, Shahnoz-Gulyor turkumlari asrlar osha bizgacha yetib kelgan musiqiy merosimizning durdonalaridir.

## Maqom yakka xonandalikning professional ijrochiligi asoslari

O'zbekiston musiqa san'atida an'anaviy yakka xonandalik eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mutaxassislar xulosaga kelishganidek, jahon xalqlari qatorida o'zbek xalqi musiqa san'ati ham yakka ovoz (monodiya) hodisasidan kelib chiqqan. Unga ko'ra, qadim zamonda inson o'z tovushini anglagach, o'zicha xirgoyi qilgan, asta-sekin bu xirgoyi sayqallanib ovoz tusini olgan va natijada bir shaxsning o'z his-tuyg'ularini kuylash paydo bo'lgan. Buning takomili natijasida yakka xonandalik (yakka ovozda kuylash) tartib topgan va takomillashuv davomida u an'anaviylik (tajribani ikkinchi kishiga uzatish) tusini olgan. Shu tariqa musiqa san'atimizda o'ziga xos yo'nalish yakka xonandalik san'ati tabiiy-tadrijiy ravishda kelib chiqqan. Bu o'rinda mazkur san'atning asosiy tushunchalari mazmunini anglab olish kerak bo'ladi.

“An'anaviy yakka xonandalik san'ati” tushunchasining an'anaviy iborasi “bir tomondan meros qoldirish va ijtimoiy vorislikni, ikkinchi tomondan esa yangilanish va navqironlikni” anglatadi. Buning ma'nosi shuki, yakka xonandalik san'atida tajribali san'atkor (kuylovchi) o'zining ijro mahorati sirlarini yosh iste'dodli shaxsga uzatadi, bu yosh iste'dod yakka xonandalik asoslariga vorislikni qabul qiladi va ayni paytda, har bir yakka xonanda bu san'atning zamon va makon talablariga mos ravishda rivojlanib borishini ta'minlaydi, bu an'anaviylikning navqironligidir (hamisha amalda bo'lishidir). Shu tariqa yakka xonandalik san'atida davomiylik ta'minlanadi. Demak, yakka xonandalik san'atida an'anaviylik bu:

- yakka ovozda kuylash asoslarini ajdodlardan avlodlarga uzatib borish;
- sohada vorisiylikni ta'minlash;
- bu san'at turini zamon talablariga mos ravishda rivojlantirib borishdir.

Yakka xonandalik – kuylash san'atining negizi bo'lib, unda muayyan ashula (qo'shiq) bir shaxs tomonidan yakka ovozda ijro etiladi. Musiqa san'atiga oid adabiyotlarda yakka xonandalikning bir necha xususiyatlari tahlil qilib o'tilgan. Ular tahlil qilinganida asosiy xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Unga ko'ra, yakka xonandalikda bo'lish uchun:

- talab darajasida ovoz diapozoniga ega bo'lishi;
- musiqiy eshituv va kuylash layoqati mavjud bo'lishi;
- muayyan ko'nikma va malakani egallashi kerak.

Aslida har bir shaxsda bu xususiyatlar mavjud bo'ladi, yakka xonanda bo'lish uchun esa mazkur xususiyatlarni yoshlikdan tarbiyalash taqozo etiladi. Yakka xonanda uchun eng asosiy masala ovozdir, bunday ovoz “odamning ovoz a'zolari yordamida musiqali tovushlarni hosil qilish qobiliyati” deb ataladi.

Ilmiy xulosalarga ko'ra, insonning ovozi 12-13 yoshdan boshlab to'liq hajmga (1,5 oktavaga) erishadi. Mana shu davrdan boshlab bo'lajak yakka xonanda ovozi professional asosida tarbiyalanib va rivojlantirilib boriladi. Shu jihatdan Respublikamizda bolalar musiqa va sa'nat, maqom maktablarining o'qituvchilari, mutaxassisleri hamda jo'rnavozlari bo'lajak yakka xonandalarning ovozi tarbiyasiga ilmiy-professional asosida yondashishi taqozo etiladi.

Professional yakka xonanda bo'lish uchun quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan ovoz sohibi bo'lish kerak:

- 1) ovozning jarangdor, shirador va uzoq sadolanishga ega bo'lishi;
- 2) ovoz diapazoni 2 oktava bo'lishi va sadosining ravon hamda tekis chiqishi;
- 3) xonandaning o'z ovozini kuylash jarayonida boshqara olishi.

Bunday ko'nikma va malakaga erishish uchun har bir shaxsda imkoniyat mavjud bo'ladi. Bu imkoniyatni ro'yobga chiqarish professional musiqa ta'limi jarayonida kechadi.

Maqom yakka xonandaligining san'at ekanligi shundaki, unda muayyan she'riy matn ashula (qo'shiq) shaklida musiqa vositasida tinglovchiga yetkaziladi. Tinglovchi xonandaning kuylashidan ruhiy-ma'naviy zavq oladi, muayyan fikr yoki g'oyani uqadi hamda kuylovchiga munosabat bildiradi. Aynan mana shu nuqtada an'anaviy yakka xonandalikning o'ziga xos san'at ekanligi namoyon bo'ladi.

Maqom yakka xonandaligining ikki turi mavjud: 1) havaskor yakka xonandalik; 2) profesional yakka xonandalik. Havaskor yakka xonanda kuylashning dastlabki asoslarini o'zlashtirib, an'anaviy ashulalarni (qo'shiqlarni) ijro etish bilan cheklanadi. Professional yakka xonanda esa musiqa ta'limini olgan, yakkaxon yoki ansambl tarkibida an'anaviy ashulalarni (qo'shiqlarni) talab darajasida ijro etuvchi hamda ijod bilan shug'ullanuvchi san'atkoridir. Bugungi kunda mamlakatimizda havaskor va professional yakka xonandalik uzviy rivojlanib bormoqda. Ayni paytda, professional yakka xonandalikni rivojlantirib borish taqozo etiladi. Chunki jahon xalqlarining hozirgi rivojlanib borish jarayoni har bir soha qatorida musiqa san'ati yo'nalishlarini taraqqiy ettirishda professionalizm omiliga asosiy e'tiborni qaratmoqda.

Yakkaxon ashula ijrochisi uch mutaxassis bilan o'zaro aloqada ijro mahoratini hosil qiladi:

- 1) ta'lim jarayonida ustoz bilan;
- 2) ashula matni muallifi bilan;
- 3) kompozitor (bastakor) bilan.

Bu ijodkor yakkaxon ashula ijrochilarga xos xususiyatdir va ayni paytda, ko'pchilik yakka xonandalar an'anaviy ashulalarni ijro qilish bilan cheklanishini

ta'kidlash joiz. Lekin, biz shaxsiy tajribamizdan kelib chiqib ijodkor yakkaxon ashula ijrochilarni yakka xonandalik san'atini rivojlantiruvchi muhim tayanch deb hisoblaymiz. Negaki, bunday toifa ijro etgan yangi va original ashulalar yillar sinovidan o'tib an'anaviy ashulalarga aylanib boradi.

### **Nazorat savollari**

- Yakka ovoz (monodiya) hodisasini izohlab bering?
- An'anaviylik tushunchasi mazmun mohiyati nimani anglatadi?
- Maqom yakka xonandalikning ikki turiga nimalar kiradi?
- Yakkaxon ashula ijrochisi qanday mutaxassis bilan o'zaro aloqada ijro mahoratini hosil qiladi?

### **Yakka xonandalik yo'nalishida ansambl ijrochiligi sinfi, uning mazmuni va uslublari**

**“Ansambl”** (fransuzcha ensemble – birlik, uyg'unlik, ohangdoshlik) – 2) musiqada – a) ma'lum musiqa asarlarining bir necha ijrochilar tomonidan birgalikda ijro etilishi... Ijrochilar soniga qarab ansambllar duet (2 kishi), trio yoki terset (3 kishi), kvartet (4 kishi), kvintet (5 kishi), sestet (6 kishi), septet (7 kishi), oktet (8 kishi), nonet (9 kishi) va h.k.larga bo'linadi<sup>3</sup>. Oddiy qilib aytgan jamoa bo'lib faoliyat olib borishga aytiladi. Amaliyotda juda ko'p sohalarda va hattoki yirik inshootlarga nisbatan ham ishlatiladi.

Ansamblga berilgan bu ta'rifda musiqa ijrochiligida mavjud barcha jamoaviy ijrolarni shakli va tarkibi ifodasini topgan. Darhaqiqat ansambl ijrosi musiqa ijrochiligining barcha turlarida mavjud va ularning tarkibiy jihatlari bir-biriga mutanosibdir. Faqat ularning ijroviy jarayonidagi yo'nalishlar ularni bir-biridan farqlab turadi. An'anaviy xonandalik ijrochiligida mavjud bo'lgan ansambl turlari ham bunga to'la asoslanganligi amaliyotda o'z ijobatini topgan. Demak, xonandalik amaliyotida ansambl – bu jamoa bo'lib xonish qilishga aytiladi.

O'zbek musiqa ijrochiligida ansambl, ya'ni jamoa bo'lib ijro etish ko'nikmalari qachonlardir amaliyotga kirib kelganligini xalq ijodiyotidan bilib olish mumkin. Bu xalq milliy marosimlari, tomosha san'ati, teatrlashgan jamoalar xonishlarida o'zini namoyon etib kelgan. Maqom ijrochiligining jamoaviy xonishlari ham vaqt taqozosi bilan qo'llanilib, sekin-asta an'anaga aylangan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Bunga asosiy sabab, asarlarning keng ko'lamliligi, katta avjlar bilan ijro etiladigan murakkablarini yaratilishi va albatta ochiq joylarda xonish jarayonlarini o'tash sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

<sup>3</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.-T., “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, Davlat ilmiy nashri. 538-bet.

Ilk ansambl 1923 yili To‘xtasin Jalilov rahbarligida, 1927 yili radio qoshida, Yunus Rajabiy rahbarliklarida tashkil etilib, faoliyat yuritilib kelingan. Turli tarkiblarda tuzilgan ansambllar faoliyati XX asrning birinchi yarmidayoq keng ommalashgan va amaliyotga keng joriy etilgan. 1957 yili Yunus Rajabiy rahbarligida va O‘zbekiston teleradiosi qoshida maqomchilar ansambli tashkil etilishi ulkan voqeaga aylandi. O‘zbek mumtoz musiqa merosini qayta tiklash va ijro amaliyotini mustahkamlash bilan boshlangan. Natijada, Shashmaqom tarkibidagi aksariyat namunalar ijro etilib, plastinkalarga, magnet tasmalariga yozib olingan. Avvalo ushbu ansamblning tarkibi, zamonasining eng ko‘zga ko‘ringan, mashhur va ustoz san’atkorlaridan tuzilgan. Sozandalik va xonandalikda benazir ustozlar edilar. Qolaversa, Shashmaqom va maqom yo‘llarini bilimdonlari, ansambl rahbarlarining benazir maqomdon mutaxassislar bo‘lganliklari sabab musiqiy merosning to‘liq hamda mukammal ijrosiga erishganlar. Buning barchasi haligacha zamon ijrochilari uchun dasturi amal sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Ushbu ansamblidan keyingi avlod uchun ustoz Yunus Rajabiyning ijro uslubi, qoldirgan ulkan merosi namunadir. Shu bois bo‘lsa kerak har bir tashkil etilgan, ya‘ni san’atkorlar jamlangan ansambl avvalo mavjud merosni o‘zlashtirishga, agar bilimi, ilmi va imkoniyati bo‘lsa uning yangi talqinini topishga harakat qiladi. Eng muhimi o‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab turli viloyatlarda, musiqa bilim yurtlarida, madaniyat maskanlaridan jamoa bo‘lib ijro etuvchi maqomchilar ansambllari tashkil etilib faoliyat yuritib kelmoqdalar. Oxirgi 30 yil davomida Yu.Rajabiy nomidagi maqom ansamblining o‘zi Shashmaqomning aksariyat qismlarini yangi talqinda magnet tasmalariga yozishga muvaffaq bo‘ldilar. 1992 yilda Toshkent davlat konservatoriyasining “An’anaviy ijrochiligi” kafedrasida professor-o‘qituvchilaridan tashkil topgan Faxriddin Sodiqov nomidagi maqomchilar ansambli o‘z faoliyati bilan ushbu sohada yana bir mukammal jamoaning bunyod bo‘lganligini namoyon etdi. Bu ansamblning oliy o‘quv dargohida tashkil etilganligi, kelgusi avlodning zamonga munosib tarbiyalanishida o‘quv laboratoriyasi sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Musiqiy merosni mukammal holda talqin etish albatta xonanda va sozandalardan saboq, bilim, malaka va mahorat talab etadi. Aynan ana shu jihatlarni, oliy ta‘lim tizimida yoshlarga ulashib kelayotgan dargohda an’anaga munosib kelajak avlod tarbiyalanmoqda desak adashmagan bo‘lamiz. Chunonchi, maqom xonandaligini egallashga kelgan yoshlar albatta jo‘rovoqlik, birgalikda ansambl bo‘lib ijro etish malakalari bo‘yicha ham saboq oladilar.

Maqom ijrochiligining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri jo‘rovoz bo‘lib ijro etishdir. Jo‘rovoqlik o‘zbek musiqa ijrochiligining sehrga boy jarayonlaridan biri sifatida amaliyotda qo‘llanilib kelingan. Odatda, ikki yoki undan ortiq ovozlarning, birgalikda, bir vaqtda ijro etishi juda murakkab jarayon hisoblanadi.

Xonandalarning bir-biriga mos holda tarkiblash va asarni chiroyli talqiniga erishish uchun xonandalar bir qator tabiiy va amaliy jihatlarga ega bo'lishlari kerak bo'ladi. Shu bois jo'rovoqlikning o'ziga xos xarakterli xususiyatlari mavjud ekanligi qayd etiladi. Har bir xonanda ijro etadigan asar nafas bilan bog'liq bo'lganligi bu jihatni ko'rsatib beradi. Ikki va undan ortiq xonandalarning nafas olishlari va talqinda nafasni bir-biriga mos holda qo'llashlari ahamiyatli ekanligini e'tirof etish lozimdir. Shuning uchun, xonandaning o'quv jarayoni, asarni o'zlashtirishi va mashq davri juda muhim hisoblanadi. Bu borada xonanda, ayniqsa mumtoz musiqa xonandasi ustoz ko'rishi shart. Ta'lim jarayonida ham ustozlarning e'tibor beradigan tomonlari, xonandalarga xos jihatlar hisoblanadi. Chunki, tarbiyalash davrida ularning xonandalarga xos jihatlari, ayniqsa ovozlarni egiluvchanlik, ta'sirchanlik va talqin etishga qodir bo'lishlari alohida ahamiyatga egadir. Aslida, ansambl ijrochiligi uchun xonandalardagi bu jihatlarning mutanosibliklari tanlab olinadi.

An'anaviy xonandani ijroviy imkoniyatlarida qanday jihatlar bo'lishi kerak, yoki bular nimadan iborat ekanligini ayrim tomonlari, bir qator professional ashula ijrochiligi amaliyotining uslubiyotida ta'rif etilgan, kitoblarda o'z ifodasini topgan. Xususan, ularda, an'anaviy xonandalar uchun quyidagi xususiyatlar muhimligi ham nazariy va amaliy ijobatini topgan. Ya'ni:

1) tabiiy jihatlar – iste'dod, ovoz, tasavvur, idrok, tafakkur, slux (tinglash qolbilyati), es(hofizasi kuchli) va talqin;

2) amaliy, ya'ni amaliyotda o'zlashtirishi kerak bo'lgan va ko'nikmalar hosil qilishi lozim bo'lgan jihatlar: slux (tinglash qolbilyati)ning muntazam mashg'uloti; so'z va ohanglarni yod olish ko'nikmasini rivoji; ohang va so'zlarni idroklagan holda talqin etish ko'nikmasi; aniq talaffuz; ravon va mazmunli talqin; musiqani tinglash va ijroda unga ergashish; ovozni to'g'ri ishlatish; jo'rovozni tinglash va birgalikda talqin etish, ya'ni hamnafasni sezib ijro etish hamda asarga ijodiy munosabatda bo'lish. Aslida bu jihatlar xonandalarning kasbiy-professional ko'nikmalari bo'lishi lozim. Ayni holda ko'rsatilgan sifatlarning aksariyati ansambl ijrochiligi uchun xarakterli ekanligini qayd etish lozimdir.

Ansambl bo'lib ijro etishdagi bu jihatlarning har biri o'zining xususiyatidan kelib chiqib amaliy jihatlariga ega. Bu jihatlarning xonandalarda bo'lishi va ularni yaxshi tarbiyalanishi mukammal, an'ana va zamon talabiga mos xonandalarni yetishib chiqishi uchun asos bo'ladi. Mukammal ijro maqomlarning talqini uchun eng zarur omil hisoblanadi. Maqomlarni ohang tizimi, usullar vositalari, har bir maqomlarga xos mavzularni bilib ularning xarakterini ochib berish uchun zarur ijroviy vositalarni qo'llash, har qanday asarni avvalo, talab darajasida talqin etishda va albatta tinglovchilarga mukammal tarzda etib borishida katta ahamiyat kasb etadi.

Maqom xonandaligida ansamblning ikki, uch, to‘rt, olti, ko‘pchilik, faqat ayol ovozlar, faqat erkak ovozlar va aralash ovozlar jo‘rligidagi tarkiblar amaliyotda ko‘proq qo‘llanilib kelinadi. Musiqaning nazariy va amaliyotida duet, trio, kvartet, kvintet, sekstet, oktet va h.k. iboralarida yuritilib kelinadi. Bu albatta ansamblning turlariga kiradi. Har qanday ansambl o‘z ishtirokchilarini har tomonlama bir-biriga munosib va mutanosib bo‘lishini talab etadi.

### **Nazorat savollari**

- “Ansambl” tushunchasini izohlab bering?
- Maqom ijrochiligining o‘ziga xos xususiyatlarini sanab bering?
- Xonandalarga xos jihatlarga nimalar kiradi?
- An’anaviy musiqa xonandasining ijroviy imkoniyatlarida qanday?

### **Ta’limda milliy mumtoz asarlardan foydalanish**

Maqomlar vositasida o‘quvchi-yoshlarning ijro mahoratlarini shakllantirishni shakl, vosita va usullari, xonandalik ijrochiligi mashg‘ulotlarida amal qilib kelayotgan tizimning ajralmas qismi bo‘lishi kerak. Maqomlaridan foydalanish orqali ta’lim oluvchilarning ijrochilik mahoratini shakllantirish jarayonini quyidagicha tashkil etish maqsadga muvofiqdir:

➤ maqomlaridan foydalanish orqali ta’lim oluvchilarni ijrochilik mahoratini shakllantirish jarayonida maqom xonandaligi mashg‘ulotlarida nazariy va amaliy bilim hamda tajribalardan foydalanish.

➤ maqomlarining tarbiyaviy imkoniyatlarini ochish hamda namunalarni tanlashda ularning axloqiy-estetik tomonlarini e’tiborga olish, maqom san’atining musiqiy ohangdorligi va uning ta’lim oluvchilar tomonidan idrok qilinishiga e’tibor qaratish.

➤ maqomlarini ijro etishda o‘quvchi-yoshlarga ijobiy tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadigan qulay pedagogik shart-sharoit yaratish.

➤ maqomlarini ijro eta olish ko‘nikmalarini takomillashtirish.

➤ maqom xonandaligi mashg‘ulotlarida maqom san’ati, xalq qo‘shiqlarini ijro qilish uslubi haqida ta’lim oluvchilarga nazariy ma’lumotlar berish.

➤ ta’lim oluvchilarni estetik tarbiyalash maqsadida ularning musiqiy bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish. Estetik did, idrok kabi sifatlarni shakllantirish.

Ma’lumki, xonandalik ijrochiligi mashg‘ulotlariga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri, ta’lim oluvchilarga ta’lim jarayonida ijro texnikasini o‘rgatish,

musiqiy asarlarni idrok etishlariga ko'maklashish, musiqiy bilim berish bilan bir qatorda, ularda musiqiy asarlardan zavqlanish, estetik idrok qilish malakalarini tarkib toptirishdan iborat.

Maqomlari namunalari avlodan-avlodga o'tib, qon-qoniga singib ketgan san'at turidir va shuning uchun ham xalq ohanglari, nola-qochirimlari hamda boshqa milliy bezaklarini tinglagan kishi unga befarq bo'la olmaydi, bevosita unga ergashadi, qo'shilib kuylaydi, raqsga tushadi, ya'ni musiqa uni o'zining sehrli olamiga yetaklaydi.

O'zbek xalq estetik joziba olami bo'libgina qolmay, balki estetik ta'lim-tarbiya vositasi hamdir. Chunki, inson his-hayajoni zamirida ma'naviy-axloqiy tushunchalar, hissiyotlar, xulosalar ham yotadi.

Maqomlar – vositasida ta'lim oluvchilarni ijro mahoratlarini shakllantirishning shakl, vosita va usullari xonandalik ijrochiligi mashg'ulotlarida amal qilib kelayotgan tizimning ajralmas qismi bo'lishi kerak. Ijrochilik mahoratini shakllantirish jarayonini quyidagicha tashkil etish maqsadga muvofiqdir:

1. Turkum asarlardan foydalanish orqali ta'lim oluvchilarni ijrochilik mahoratini shakllantirish jarayonida xonandalik ijrochiligi mashg'ulotlarida nazariy va amaliy bilim hamda tajribalardan foydalanish.

2. Maqomlarini tarbiyaviy imkoniyatlarini ochish hamda namunalarni tanlashda ularning axloqiy-estetik tomonlarini e'tiborga olish, turkum asarlarining ijro uslublari emotsionalligi, musiqiy ohangdorligi va uning ta'lim oluvchilar tomonidan idrok qilinishiga e'tibor qaratish.

3. Maqom xonandaligi ijrochiligi mashg'ulotlarida ta'lim oluvchiga ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadigan pedagogik muhitni vujudga keltirish, har bir o'quv materialini tanlashda estetik tarbiya qonuniyatlariga amal qilish.

4. Yoshlarni maqom namunalarni ijro eta olish ko'nikmalarini takomillashtirish.

5. Mashg'ulotlar paytida maqom san'ati, xalq qo'shiqlarini ijro qilish uslubi haqida ta'lim oluvchilarga yetarli nazariy ma'lumotlar berish.

6. Ta'lim oluvchilarni estetik tarbiyalash maqsadida ularning musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish. Estetik did, idrok kabi sifatlarni shakllantirish.

Bugungi kunda xonandalik ijrochiligi mashg'ulotlariga qo'yiladigan asosiy talablardan biri, ta'lim oluvchilarga ta'lim jarayonida ijro texnikasini o'rgatish, musiqiy asarlarni idrok etishlariga ko'maklashish, musiqiy bilim berish bilan bir qatorda, ularda musiqiy asarlardan zavqlanish, estetik idrok qilish malakalarini tarkib toptirishdan iborat.



Ta'lim oluvchilarni estetik tarbiyalash - xonandalik ijrochiligi mashg'ulotlari tarkibida hamda ta'lim oluvchining mustaqil ta'limini tashkil qilish jarayonida amalga oshiriladi.

Shuning uchun ta'lim oluvchilarning o'qish faoliyatini takomillashtirish bilan birga ma'naviy-estetik tarbiya sohasida ham qator ishlarni bajarish talab etilmoqda. Bundan tashqari, mustaqil ta'lim tashkil qilinib, ularga o'rgatiladigan musiqiy bilim mustahkamlanadi. Ta'lim oluvchilarni estetik tarbiyalash vositasi va shakllari qanchalik rang-barang bo'lsa, shuncha yaxshi samara beradi.

Maqom xonandaligi ijrochiligi mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilar maqom namunalari bilan bir qatorda xalq qo'shiqlari va kuylarini ham o'rganadilar, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va farqlarni anglashga harakat qiladilar. Natijada ta'lim oluvchilar e'tiboriga havola qilinayotgan maqom va xalq qo'shiqlarining o'zigagina xos bo'lgan tomonlarini ajrata oladilar, ularning o'zaro o'xshash va farqlari, umumiy tomonlarini guruhlash, taqqoslash kabilardan foydalanib xulosalar chiqaradilar.

### **Nazorat savollari**

- Maqom ijrochiligi san'atida maqomlaridan foydalanish orqali ta'lim oluvchilarning ijrochilik mahoratini shakllantirish jarayonini qanday tashkil etish maqsadga muvofiq?
- Musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish qanday amalga oshiriladi?
- Bugungi kunda xonandalik ijrochiligi mashg'ulotlariga qo'yiladigan asosiy talablar qanday?

### **Yakka xonandaning faoliyat asoslari**

“Shashmaqom cholg'u va ashula bo'limidagi kuy va ashula yo'llarining eshituvchilarga to'g'ri yetib borishi, ularga zavq va lazzat bag'ishlay olishi ularni boshqa musiqa asarlari kabi yaxshi ijro etilishiga ko'p jihatdan bog'liqdir”.<sup>4</sup>

O'tmishda maqomlarning ijro etilishda tanbur va doira yetakchi cholg'ulardan hisoblangan. Maqom qismlari turkum tarzida yoki yakka kuy va ashula tarzida yakkaxon, yakkanavoz yoki ansambl tomonidan ijro etilgan. Shashmaqom ashula yo'llarini ijro etishda hofiz maxsus malaka xosil qilgan bo'lishi, maqomlarni ijro etish mahoratini yuksak darajada egallagan bo'lishi

<sup>4</sup> Ishaq Rajabov. Maqomlar. “San'at” nashriyoti, T., 2006, 296-bet.

lozim. Sifatsiz ijro etish maqom yo'llari haqida noto'g'ri tasavvur qoldirishi mumkin.

Maqom ashula ijrochiligida bir hofizning aytish uslubi va uning aytgan ashula yo'li ikkinchisiga hech bir o'xshamaydi. Maqom ashula yo'llarini turli hofizlar hatto variantlar darajasida ijro etishlari mumkin. Chunki ularning har biri ashula yo'lini puxta va chiroyli ijro etishi uchun o'z ovozinging imkoniyatlari doirasida unga ma'lum o'zgarishlar kiritadi. Bunda hofiz ovozinging kuchi va baland pastligiga qarab ashulada mavjud bo'lgan kuy bo'laklarini qisqartirib yoki ularga namudlar kabi qismlar kiritishi mumkin. Masalan, buxorolik hofizlar Qo'qon Ushshog'iga Segoh, Ushshoq, Uzzol va Muhayyari Chorgox namudlarini qo'shib aytgan bo'lsalar, Farg'ona vodiysida esa faqat Namudi Segoh bilan cheklaganlar. Tojikistonda unga hatto Zebo pari avjini ham qo'shib ijro etganlar.

Buxorolik hofizlarning maqomlarni ijro etish uslubida o'ziga xos yuksak mahorat, qochirimlar borligini alohida qayd etib o'tish lozim. Bunday ijrochilik uslubini juda qadim zamonlardan O'rta Osiyoning markaz shaxri Buxoroda shakllangan ijrochilik an'anasining mahsuloti, deb qarash lozim.

“Maqom ashula yo'llari O'zbekiston va Tojikistonning turli shahar, viloyat va vodiylaridagi hofizlar ijro etish uslubida ham ba'zi farqlar mavjud. Masalan, ma'lum maqom yo'li Buxoro va Samarqandda bir turli ijro etilsa, Farg'ona va Toshkentda boshqacha, Xo'jand va Tojikistonning boshqa viloyatlarida bir xil, Xorazmda esa yana bo'lakcha uslubda ijro etiladi”.<sup>5</sup>

Maqom yo'llari ijrosi uchun hofizda keng diapazon, yoqimli ovoz va yuksak aytish mahorati bo'lishi shart. Hofiz kuy va unga aytiladigan she'r mazmunini xis qila bilishi, uni eshituvchiga yuksak mahorat bilan to'g'ri yetkaza olishi bunda muximdir. Agar maqom yo'llari har tomonlama yuksak-badiiy saviyada ijro etilmasa, shinavandalarga yetib bormasligi ham mumkin.

“Bu masalada ayrim maqomdon ustozlarning fikrlarini to'g'ri, deb bo'lmaydi. Ular maqom cholg'u yo'llari hamda Saraxbor bilan Savt yo'llarining doira usuli sur'ati o'tmishda juda (past) sust bo'lib kelgani uchun hozirgi kunda ham ular shunday ijro etilishi kerak, deb hisoblaydilar. Xozirgi kundagi hofizlarning ijro etish imkoniyatiga qarab, maqom yo'llarining doira usuli sur'atini o'zgartira berish mumkin”.<sup>6</sup>

Ustozlar maqomlarni bir butun shaklda, boshidan oxirigacha yoki ularning ayrim sho'balarini ijro etib kelganlar. So'nggi vaqtlarda maqom ashula yo'llari yakka-yakka holda ham ijro etib kelinmoqda.

O'zbek ijrochilik san'atida, maqom yakka xonandaligi alohida o'rin tutadi. Chunki bu ijrochilikda xonandaning bor iste'dodi, ijro mahorati va kasbiy tajribasi

<sup>5</sup> Ishoq Rajabov. Maqomlar. “San'at” nashriyoti, T., 2006, 301-bet.

<sup>6</sup> Mazkur adabiyot, 302-bet.




to'liq namoyon bo'ladi. Ayni paytda, maqom yakka xonandalikda ijro uslublari umumxonandalik uslublariga asoslanadi. Biroq, yakka xonandalik ashula ijro (kuylash) uslublarini takomillashtirib borish imkoniyatlari kengligini eslatib o'tish joiz. Shu sababli har bir yakkaxon ashula ijrochisi o'zining "Ijro yo'li"ni kashf etish, uni takomillashtirish va avlodlarga uzatish imkoniyatlariga egadir.

Maqom yakka xonandaligi Sharq ashula ijrochiligida mashhur bo'lgan quyidagi *uch uslubga* tayanadi:

- 1) *Binigi* – dimog'idan chiqariladigan ovoz;
- 2) *Guligi* – tomoq'dan chiqariladigan ovoz;
- 3) *Ishkami* – ko'krak-qorin diafragmasi vositasida hosil qilinadigan ovoz.

Tajribali va o'z ovozi boshqara oladigan yakkaxon maqom ijrochisi bu uslublardan teng foydalanishi kuzatiladi. Bunga erishishning asosi tinimsiz va izchil mashq hamda ovoz ustida ishlashdadir. Aynan mashq va ovoz ustida ishlash xonandalik uslubini kutilgan darajada egallash kaliti hisoblanadi.

Har bir yakkaxon ijrochi ovozi ishlatish usullari, ovozi tusi, kenglik ko'lami, kuchi va jarangdorligi bilan *ajralib* turadi. Insoning kuychan ovozi binigi (dimog'li), guligi (ochiq-jarangdor) va ishkami (yuqori) bo'ladi, ular tinglovchiga huzur bag'ishlaydi. Shu ma'noda yakkaxon ashula ijrochisi kuylash jarayonini dimog' ovozdan boshlab, tomoq ovozga o'tishi va ashulaning avj nuqtasida ko'krak-qorin ovozda ijro etishi kerak. Ba'zan ijroni avj nuqtadan boshlashga to'g'ri keladi, bunday holatda ovozni kutilgan darajada boshqarish kerak bo'ladi. Umuman, ijro jarayonida ovozi sadolanishi aylanma harakatda bo'ladi:



Shu sababli xonandaning ovozi o'zgalarga tez ta'sir ko'rsatadi va tinglovchining ruhiga halovat beradi.

Zero, yakka xonandalikda ijro jarayonida quyidagi uch layoqatga ega bo'lishi taqozo etiladi:

- 1) Ovozni meyorli sadolantirish;
- 2) Musiqani etarli darajada eshitish;
- 3) So'zlarni aniq talaffuz qilish.

### Nazorat savollari

- O'zbek ijrochilik san'atida maqom yakka xonandalikning o'rni qanday?
- Maqom yakka xonandaligi Sharq ashula ijrochiligida qanday uch uslubga tayanadi?
  - Binigi ijro uslubi qanday?
  - Guligi ijro uslubi qanday?
  - Ishkami ijro uslubi qanday?

### Foydalanish uchun adabiyotlar:












1. Akbarov I. Musiqa lug'ati. –T.: “O'qituvchi”.1997. -120 b.
2. Barkamol avlod tarbiyasida san'atning o'rni. –T.: “Musiqa”.2010. -324 b.
3. Begmatov S. Hofizlik san'ati. – Toshkent: O'zbekiston davlat konservatoriyasi nashriyoti, 2007.
4. Y.Rajabiy. I. Akbarov. O'zbek xalq musiqasi tarixi, (O'qituvchi). 1981 yil.
5. “Shashmaqom saboqlari”, maqola va ma'ruzalar to'plami, Toshkent-2005.
6. “Shashmaqom” I-VI jildlar. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent-1975.
7. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. –T.: O'qituvchi, 1994.- 320 b.

# MAQOM



Nuriddin Aminjon she'ri  
Erkin Ro'zimatov musiqasi

Moderato



El a - ro e' - zoz - ga mo - lik, har yu - rak - ka jo - ma-qom Ma -

qom, ma - qom el a - ro e' - zoz ma-qom Ma -

qom, ma - qom Buz - ru - ku ham Rost ma-qom

Yo'l - la - ri - da qan - cha-qan - cha kuy-chi - ni be - dor e - tib

Biz-ga kel - gach ul - a - tal - di mis - li yo'q tan - ho ma-qom

Ib - ni Si - no - yu, Na - vo - iy, Ur - ma - viy ham Kav - ka - biy


Sir - ri mu - si - qiy ha - qin - da chek - di - lar in - sho ma-qom Ma -

qom, ma - qom sir - ri mu - si - qiy ma-qom Ma -


qom, ma - qom Na - vo - yu Du - goh ma-qom




"Av - ji turk", "Ze - bo pa - ri - lar" dong ta - rat - di kuy a - ro




"Nag'ma - i o - raz" a - nga bo'l -




di sal - lam - no ma - qom (o) - - -




"Av - ji turk", "Ze - bo pa - ri - lar"




dong ta - rat - di kuy a - ro "Nag'ma - i o - raz" a - nga bo'l -




di sal - lam - no ma - qom Be - ba - ho ol - tin xa - zi - na




har qa - ti - ga ko'z nu - rin To'k - kan Yu - nus Ra - ja - biy - ni




et - di Mav - lo - no ma - qom Ey - Nu - rid - din ting - la, ang - la




ko'z - ga surt har sat - ri - ni Buz - ru - ku, Ush - sho - qu, Rost, Du -




goh ham Se - goh ma - qom Ma - qom, ma - qom



il - mu g'ayb - dur ma - qom ma - qom ma - qom



Se - go - hu I - roq ma - qom Ma - qom, ma - qom



Birlashuvdan olti irmoq bo'ldi cho'ng daryo maqom,  
Necha yuz yillarki solmish dil aro ma'no maqom.

Mir Alisher bahra olgan, bahramandmiz toki biz,  
El aro e'zozga molik, har yurakka jo maqom.

Maqom, maqom, el aro e'zoz maqom,  
Maqom, maqom, Buzruk-u ham Rost maqom.

Yo'llarida qancha-qancha kuychini bedor etib,  
Bizga kelgach ul ataldi misli yo'q tanho maqom.

Ibni Sino-yu Navoiy, Urmaviy ham Kavkabiy,  
Sirri musiqiy haqinda chekdilar insho maqom.

Maqom, maqom, sirri musiqiy maqom,  
Maqom, maqom, Navo-yu, Dugoh maqom.

"Avji turk", "Zebo pari"lar dong taratdi kuy aro,  
Ikkisin kim kuylay olsa unga sallamno maqom.

Bebaho oltin xazina har qatiga ko'z nurin  
To'kkan alloma Yunusni etdi Mavlono maqom.

Ey Nuriddin, tingla, angla, ko'zga sur har satrini,  
Buzruk-u, Ushshoq-u, Rost, Dugoh ham Segoh maqom.

Maqom, maqom, ilmi G'aybdur maqom,  
Maqom, maqom, Segoh-u, Iroq maqom.

















# QASHQARCHAI ROK

Buzruk maqomidan

Habibiy g'azali

M.M ♩ = 180



ta har yon O'z - be - kis - ton - da

Be - zan - di hur va - tan ko'z ko'r - ma - gan bo - g'u bi - no bir - la

kim er - kan ey Ha - bi - biy qil - sa ar - mon O'z - be - kis - ton - da

kim er - kan ey Ha - bi - biy qil - sa ar - mon O'z - be - kis - ton - da

Be - zan - di hur va - tan ko'z ko'r -

ma - gan bo - g'u bi - no bir - la kim er - kan ey Ha - bi - biy qil -

sa ar - mon O'z - be - kis - ton - da kim er - kan ey Ha - bi - biy qil -

sa ar - mon O'z - be - kis - ton - da kim er - kan ey Ha - bi - biy qil -

sa ar - mon O'z - be - kis - ton - da

Rivoj oldi bilim har lahza, har on O'zbekistonda,  
Yaraldi har bir ezgu ishga imkon O'zbekistonda.

Humo qush qay kuni yoydi qanotin boshimiz uzra,  
Muzaffar bo'ldi ahli O'zbekiston O'zbekistonda.

Ko'rindi subhi sodiqdek o'shal kun nuri istiqlol,  
Qaro tunni surib ohista har yon O'zbekistonda.

Bezandi hur Vatan ko'z ko'rmagan bog'-u bino birla,  
Kim erkan, ey Habibiy, qilsa armon O'zbekistonda.

# SOQIYNOMAI ROK

Buzruk maqomidan



M.M. ♩ = 140

Erkin Ro'zimatov she'ri

Do'st ya - li, ya - li, ya - li do'st Do'st ya - li do'st

yal - lo - la - shar kun - dir bu kun

kun Ke - ling do'st - la - rim qo' - siq ay - ta


miz Bu xur - ram za - mon - - ni qo' - shib ay - ta -

miz Dar - yo - day jo' - shib jo' - shib ay - ta -


miz Bul - bu - li xush - xon - day to - shib ay - ta -

miz Do'st ya - li, ya - li, ya - li do'st Do'st ya - li


do'st yal - lo - la - shar kun - dir bu




kun Bu u - lug' di - yor biz - ni - ki bi -




ling Cha - ma - nu gul - zor biz - ni - ki bi -




ling Il - mu if - ti - xor biz - ni - ki bi -




ling Nur - li yo'l da - von o - shib ay - ta -




miz Do'st ya - li, ya - li, ya - li do'st Do'st ya - li



do'st yal - lo - la - shar kun - dir bu



1. 2.  
kun kun yal - lo - la - shar



rit. kun - - dir bu kun

Do'st yali, yali, yali do'st,  
Do'st, yalli do'st, yallolashar kundir bu kun.  
Keling, do'stlarim, qo'shiq aytamiz,  
Bu xurram zamonni qo'shib aytamiz,  
Daryoday jo'shib-jo'shib aytamiz.  
Bulbuli xushxonday toshib aytamiz

Naqorat.

Bu ulug' diyor bizniki, biling,  
Chaman-u gulzor bizniki, biling.  
Ilm-u iftixor bizniki, biling,  
Nurli yo'l – dovon oshib aytamiz.

Naqorat.













# UFARI ROK

Buzruk maqomidan



M.M. ♩ = 90

Shokirxon Hakimiy g'azali



yur - tim, e - lim Il - di - zing to - bo - ra kuch - li bo'l - di mus - tah -  
 - kam se - ni (ya) - - - (a) - - -  
 Bo'l - di iq - bo - lim u - lug' - lik shul sa - bab g'oz qo - ma - tim,  
 De - ding Ey Sho - kir. ha - mi - sha ay - la - dim o'k - tam se - ni  
 Do'st ya - li, ya - li, ya - li do'st Do'st ya - li do'st  
 yal - lo - la - shar kun - dir bu kun  
 Do'st ya - li, ya - li, ya - li do'st Do'st ya - li do'st  
 yal - lo - la - shar kun - dir bu kun

Ey Vatan, tinmay qilar vasfingni bu olam seni,  
 Shul sabab aytar elim “eng mehribon onam” seni.

Subhidam cheksiz samoning miltirab yulduzlari,  
 Yuvgali taxtiga go‘yo aylanar shabnam seni.

Ta‘rifingni so‘zlamog‘ga doimo ojiz tilim,  
 Ishda sen sobitqadamsan, shiddating ildam seni.

Sen misoli bir chinorsan, barglaring yurtim, elim,  
 Ildizing tobora kuchli bo‘ldi, mustahkam seni.

Bo‘ldi iqbolim ulug‘liq, shul sabab g‘oz qomatim,  
 Deding: “Ey Shokir, hamisha ayladim o‘ktam seni”.





# QASHQARCHAI SAVTI KALON

Rost maqomidan




Moderato


Chustiy g'azali



Eng u-lug' - lar - dan u-lug' in-son - lar in-so - ni o - na




O - yu kun - dan ham mu-nav - var hus - ni nu - ro - niy o - na



meh - ri - bon - lar meh - ri - bo - ni yax - shi - lar - ning yax - shi - si




meh - ru shaf - qat o - la - mi - ning yuk - sak os - mo - ni o - na




meh - ru shaf - qat o - la - mi - ning yuk - sak os - mo - ni o - na




Qal - bi dar - yo, o - li him - mat har sa - hiy - dan ham sa - hiy




Ya' - ni, g'am - xo'r - lik di - yo - rin to - za vij - do - ni o - na




Ya' - ni, g'am - xo'r - lik di - yo - rin to - za vij - do - ni o - na




Bag' - ri bog' sah - ni - yu far - zand sun - bu - lu ray - ho - nu gul




Bag' - ri bog' sah - ni - yu far - zand sun - bu - lu ray - ho - nu gul




nu gul Bu ha-yot dun -




- yo - si-ning eng kat - ta bog'-bo - ni o - na (ya) - (vo) - (ya)




Yax - shi far-zand o - na-sin ay -




- lar ri-zo ay-lar ri-zo (ya) - - - (o) -




Dav - la - ti ham, bax - ti ham, dar - mo - ni ham, jo -




ni o - na (ya) - (vo) - (ya) O - na-jon, deb say - ra-gay qush




- lar cha-man - da Chus - ti - yo Say - ra-gay bul - bul di-lim - ning




she' - ru dos - to - ni o - na Say - ra-gay bul - bul di-lim - ning




rit. . . . .  
she' - ru dos - to - ni o - na




Eng ulug‘lardan ulug‘, insonlar insoni – ona!  
Oy-u kundan ham munavvar – husni nuroniy ona!




Mehribonlar mehriboni, yaxshilarning yaxshisi,  
Mehr-u shafqat olamining yuksak osmoni – ona!




Qalbi daryo, olihimmat, har saxiydan ham saxiy,  
Ya’ni g‘amxo‘rlik diyoring toza vijdoni – ona!











Bag‘ri bog‘ sahni-yu farzand – sunbul-u rayhon-u gul,  
Bu hayot dunyosining eng katta bog‘boni – ona!



Yaxshi farzand onasin aylar rizo, aylar rizo,  
Davlati ham, baxti ham, darmoni ham, joni – ona!



Onajon, deb sayragay qushlar chamanda, Chustiyo,  
Sayragan bulbul dilimning she‘r-u dostoni – ona!














# SOQIYNOMAI SAVTI KALON

Rost maqomidan



Allegro

Nuriddin Aminjon g'azali



ham - o - hang nay, sa - to me - nga (ya) - - (o) - -

- ni (o) - - (o) - - (o) - -

Ang - la - ma - yin gar

kuy - la - sam, bo'l - g'ay xa - to me - nga (o) - -

Sho - ir Nu - rid - din ay - ta - dur: Ar - doq - la - sin bu el -

Xal - qim - ning e' - zoz ol - qi - shi, o - liy ba - ho me - nga

Xal - qim - ning e' - zoz ol - qi - shi, o - liy ba - ho me - nga rit. - -

Bo'lmoq odobli, chehrasi xush, muddao menga,  
Me-ni bo-rar jo - yim-(a) o'-shal Na-man-gon,  
Gul-lar ich-ra be-zan - gan - dir bu yur - tim-(a)  
do'st yo - - ray Gul-lar ich-ra be-zan - gan - dir bu  
yur - tim-(a) hay do's - - ti - mo  
Ke-ling do'st-lar,  
Sayr e - ta - miz, gul - lar,  
te-rib - (vo)ya - - - (ha)



Chun-ki shah-rim ay-lan - gan - dir gul - - zor - ga (ya)

hay do's - ti - mo Yan-gi O'z-be - kis-ton qi-yos gul

- - zor - ga - (ya) hay do's - - ti - mo

O'y-nang do'st-lar, O'y - na-ngo

shod-lik bu dam - da O'y-nang do'st-lar, O'y - na-ngo

shod-lik bu dam - da Ta-no-var-ni ay-tib be - ray men

o' - zi - mo hay do's - ti - mo

Ta - no - var - ni ay - tib be - ray men o' - zi - mo

hay vo - - ya O - qar dar - yo - - -

-lar (a) - (vo)(ya) - sho'x-sho'x

oq - moq - da (ya) - - - (ha)

Er-kin za-mon kel-di bu - gun biz - - - lar - - - ga- (ya)  
 hay vo - - - ya Yan - gi O'z - be - - kis - ton qi - yos  
 - - - zor - - - ga- (ya) hay do's - - - ti - mo

Meni borar joyim – o‘shal Namangon,  
 Gullar ichra bezangandir bu yurtim.  
 Keling, do‘stlar, sayr etamiz, gullar terib,  
 Chunki shahrim aylangandir gulzorga.  
 Yangi O‘zbekiston qiyos gulzorga-ya,  
 Hay do‘stim-o.

O‘ynang, do‘stlar, o‘ynang-o, shodlik bu damda  
 Tanovarni aytib beray men o‘zim-o.  
 Oqar daryolar-a voy-a sho‘x- sho‘x oqmoqda-ya voya,  
 Erkin zamon keldi bugun bizlarga-ya.  
 Yangi O‘zbekiston qiyos gulzorga-ya,  
 Hay do‘stim-o.



# OLAM CHIROG'I

Hajringda ey yor ashulasining musiqasida




Mahmud Toir she'ri  
Xalq musiqasi

Allegro ♩ = 120




O - na - lar - o - lam - ning




o - rom - chi - ro - g'i

O - na - lar - o - lam - ning




o - rom - chi - ro - g'i

Ti - rik - lik ko'k la - mi,




baxt - ning yap - ro - g'i

Ti - rik - lik ko'k




la - mi,

baxt - ning yap - ro - g'i




Du - o - dan nur tut - sa,

tov - la - nib ke - tar




Yet - ti ka - ma - lak - ning

yo - ni - ga ye - tar




Yet - ti ka - ma - lak - ning



yo - ni - ga

ye - tar



O - zo - da xa - yol - lar

os - mo - ni - o - na Har dil - ning, har gul - ning

pos - bo - ni - o - na O - qi - bat ar - do - g'in

chi - ro - g'i u - lar Du - o kav - sa -

- ning bu - lo - g'i u - lar Du - o kav - sa -

- ning bu - lo - g'i u - lar

A - gar - ki tiz cho'k - sam ti - zim gul - lay - di

Har bay - tim bir ba - hor, so' - zim gul - lay - di

Um - ri - da ib - rat bor O'z - bek o - na - sin

Shuk - ri - da hik - mat bor O'z - bek o - na - sin

Shuk - ri - da hik - mat bor

rit. . .  
O'z - bek o - na - sin

Onalar – olamning orom chirog‘i,  
Tiriklik ko‘klami, baxtning yaprog‘i.

Duodan nur tutsa, tovlanib ketar,  
Yetti kamalakning yoniga yetar.

Ozoda xayollar osmoni – ona,  
Har dilning, har gulning posboni – ona.

Oqibat ardog‘in chirog‘i – ular,  
Duo kavsarining bulog‘i – ular.

Agarki tiz cho‘ksam, tizim gullaydi,  
Har baytim – bir bahor, so‘zim gullaydi.

Umrida ibrat bor O‘zbek onasin,  
Shukrida hikmat bor O‘zbek onasin.











# DIYORIMSAN



Habibiy she'ri

Komiljon Jabborov musiqasi

Allegro



Har yer - da ma - dad - ko - rim,

har ish - da ma - do - rim - san

Qo'y - ning - da o' - sar yay - rab

Qoy - ning - da o' - sar yay - rab

eng bax - ti - yor in - son - lar

Bog' - la - ring bo - g'u bo's - ton - dir

dil - lar - da yo'q ar - mon - lar

Al - bat - ta sa - mar ber - gay

zo'r ahd i - la pay - mon - lar

Al - bat - ta sa - mar ber - gay

zo'r ahd i - la pay - mon - lar

Ol - tin - ga xa - zi - nam - san (jo) - (nim) (ey)

bo - g'im - la ba - ho - rim - san

Har yer - da ma - dad - ko - rim,

har ish - da ma - do - rim - san

El bir - la Ha - bi - - biy ham

El bir - la Ha - bi - - biy ham

meh - nat - da, sa - do - qat - da

Bo'l - ding, Va - ta - nim o - bod

shav - kat - da, a - do - lat - da

To - bo - ra chi - ro - - ying xush

yash - nay - san sa - o - dat - da

To - bo - ra chi - ro - - ying xush

yash - nay - san sa - o - dat - da

Mash - hu - ri ja - hon bo'l - ding Va - ta - nim

shaf - qat - li shi - o - rim - san



Mash - hu - ri ja - hon bo'l - ding Va - ta - nim

shaf - qat - li shi - o - - rim - san

Ozoda, go'zal o'lkam, hurmatli diyorimsan,  
 Ko'p zahmat ila topgan baxtimsan-u borimsan.  
 Jonim kabi asrayman, nomus ila orimsan,  
 Ko'nglim ochilur boqsam, orom-u qarorimsan,  
 Har yerda madadkorim, har yerda madorimsan.

Qo'yingda o'sar yayrab eng baxtiyor insonlar,  
 Boshdan oyoq – oq oltin sahro-yu biyobonlar.  
 Albatta o'tar yuzdan, zo'r ahd ila paymonlar,  
 Oltinga xazinamsan, bog'im-la bahorimsan,  
 Har yerda madadkorim, har yerda madorimsan.

El birla Habibiy ham mehnatda, sadoqatda,  
 Bo'lding, Vatanim, obod shavkatda, adolatda,  
 Tobora chiroying xush yashnaysan saodatda,  
 Mashhuri jahon bo'lding, shafqatli shiorimsan,  
 Har yerda madadkorim, har yerda madorimsan.

# ONAJONIM



Muhayyo Mirsaidova she'ri  
Erkin Ro'zimatov musiqasi

Andante

Al - lan - giz - ning

seh - ri - dan qo - na Bag'-rin - giz - da sho - don ul - g'ay -

dim Al - lan - giz - ning seh - ri - dan qo - na


Bag'-rin - giz - dan sho - don ul - g'ay - dim Sho'x-roq e - dim

ran - jit - dim o - na Tash-vish - lar - ga tash - vish u - la -


dim Sho'x-roq e - dim ran - jit - dim o - na

Tash - vish - lar - ga tash - vish u - la - dim Yu - ra - gi - ngiz -


zi - lol bir chash - ma Mehr de - gan ming - ta ko' - zi  
 bor Qu - yosh yang - lig' ki - rib dil - lar - ga (ey)  
 Gul - shan ich - ra gul - ga qi - lar kor Qu - yosh yang - lig'  
 ki - rib dil - lar - ga (ey) Gul - shan ich - ra gul - ga qi - lar  
 kor  
 Dil - band - lar deb buk - chay - gan - tan - da  
 Ma' - su - ma - lik, pok - lik bor to - za  
 Ha - sad ni - ma bil - ma - gan ban -  
 da Siz - dan o - lay men - ham an - do - za  
 Chet - ga su - rib dun - yo i - shi - ni  
 Gul - lar bi - lan bo - ray qo - shiz - ga Tiz - zan - giz - ga




qo'-yib bo - shim ni (ye) Umr qo'-shay ya - na yo - shiz -




ga Tiz - zan - giz - ga qo' - yib bo - shim ni (ye)




Umr qo'-shay ya - na yo - shiz - ga O - na - jo - nim.




nur - li bog' - bo - nim Bo - g'i - ngiz - da o's - di tur - fa



gul O - na - jo - nim nur - li bog' - bo - nim




Bo - g'i - ngiz - da o's - di tur - fa gul siz - bor - li - g'im.



siz tan - da jo - nim (ey) Siz bor - siz - ki shod - lik - la - rim



mo'l (oy) . . . (oy) .



Siz bor - siz - ki shod - lik - la - rim mo'l

rit. . .



mo'l

Allangizning sehridan qona  
Bag'ringizda shodon ulg'aydim.  
Sho'xroq edim, ranjitdim, ona,  
Tashvishlarga tashvish uladim.

Yuragingiz – zilol bir chashma,  
Mehr degan mingta ko'zi bor.  
Quyosh yanglig' kirib dillarga,  
Gulshan ichra gulga qilar kor.

Dilbandlar deb bukchaygan tanda  
Ma'sumalik, poklik bor toza.  
Hasad nima bilmagan banda,  
Sizdan olay men ham andoza.

Chetga surib dunyo ishini,  
Bir gul bilan boray qoshizga.  
Tizzangizga qo'yib boshimni,  
Umr qo'shay yana yoshizga.

Onajonim, nurli bog'bonim,  
Bog'ingizda o'sdi turfa gul.  
Siz – borlig'im, siz – tanda jonim,  
Siz borsizki, shodliklarim mo'l.

# QIZ QO'SHIG'I



Shokirxon Hakimiy she'ri  
Erkin Ro'zimatov musiqasi

Moderato  $\text{♩} = 72$

The musical score is written in 6/8 time with a key signature of one flat (B-flat). It consists of a piano accompaniment and a vocal line. The piano part features a steady eighth-note accompaniment in the right hand and a more active bass line in the left hand. The vocal line is in a soprano or alto range, with lyrics in Uzbek. The score includes a QR code at the top, a tempo marking, and ten systems of music with lyrics. The lyrics describe a girl's beauty and her presence in a garden.

Gul-zor i - chi - da gul - lar

ta'-zim-da bo'l - di chun - ki Ik - ki la - bim a - qi - qu  
 ham qo'l - la-rim xi - no - li O'y - la-mang zin - hor - zin-hor  
 kam gap e - kan bu qiz deb O' - git ay - lab ta - bi - at  
 bo'l-gil de-gan i - bo - li O' - git ay - lab ta - bi - at  
 bo'l-gil de-gan i - bo - li (ey) Qo'-lim - da - gi du - to - rim  
 sehr - li xush sa - do - li Sa - daf - la - ri - da bor - dur  
 ko'k to - qi-ning hi - lo - li  
 Yap-ro - g'i lo - la uz - ra  
 Nuq-ta - ga hay - rat et - mang  
 Lab us - ti - ga qo' - yil gan qiz-ning ya-go - na xo - li  
 Dav-rim ta - ro - na - si - ga iq - bol - la-rim qo' - shil - gan  
 Dav-rim ta - ro - na - si - ga iq - bol - la-rim qo' - shil - gan

Xo-nish la-rim ja-rang - dor, qo'-shiq la-rim na-vo - li

Xo-nish la-rim ja-rang - dor, (ey) qo'-shiq la-rim na-vo - li (ey)

Qo'-lim - da - gi du - to - rim sehr - li xush sa - do - li

Sa - daf - la - ri - da bor - dur ko'k to - qi-ning hi - lo - li

Sa - daf - la - ri - da bor - dur ko'k to - qi-ning hi - lo - li

Qo'limdagi dutorim sehrli, xush sadoli,  
Sadaflarida bordur ko'k toqining hiloli.

Qirlar olovlanibdi, tog'larning bag'ri qirmiz,  
Ular lola emasdur, dilbar qizlar jamoli.

Gulzor ichida gullar ta'zimda bo'ldi, chunki  
Ikki labim aqiq-u ham qo'llarim xinoli.

O'ylamang zinhor- zinhor kamgap ekan bu qiz deb,  
O'git aylab tabiat bo'lgil degan iboli.

Yaprog'i lola uzra nuqtaga hayrat etmang,  
Lab ustiga qo'yilgan qizning yagona xoli.

Davrim taronasiga iqbollarim qo'shilgan,  
Xonishlarim jarangdor, qo'shiqlarim navoli.



# FOTIMAXON, ZUXRAXON



Muhayyo Mirsaidova she'ri  
Erkin Ro'zimatov musiqasi

Allegro

4 takt usul qoladi

Fo - ti - ma - xon, Zux - ra - xon E - giz bo - la  
Dun - yo - lar - ga ber - guv - siz teng - siz bo - la  
Fo - ti - ma - xon, Zux - ra - xon E - giz bo - la  
Dun - yo - lar - ga ber - guv - siz teng - siz bo - la

Sa - vol be - rib char - cha - tar O - na - jo - ni - ni

Ko'z - la - ri - ni yash - na - tar O - ta - jo - ni - ni

Fo - ti - ma - xon, Zux - ra - xon E - giz bo - la


Dun - yo - lar - ga ber - guv - siz teng - siz bo - la

Pa - ri - lar - dek go' - zal - dir Ko'r - gan ha - vas - da


Bun - cha - lar ham a - sal - dir, Zavq o - lar ban - da

Pa - ri - lar - dek go' - zal - dir Ko'r - gan ha - vas - da

Bun - cha - lar ham a - sal - dir, Zavq o - lar ban - da



Fo - ti - ma - xon - o - lov qiz Zux - ra - xon o'y - chan




Bi - ri - bi - ri - siz yol - g'iz tu - rol mas hech ham



Fo - ti - ma - xon, Zux - ra - xon E - giz bo - la



Dun - yo - lar - ga ber - guv - siz teng - siz bo - la




Fo - ti - ma - xon, Zux - ra - xon E - giz bo - la



Dun - yo - lar - ga ber - guv - siz teng - siz bo - la



Dun - yo - lar - ga ber - guv - siz teng - siz bo - la



Dun - yo - lar - ga ber - guv - siz teng - siz bo - la

Fotimaxon, Zuhraxon –

Egiz bola.

Dunyolarga alishmam,

Tengsiz bola.

Savol berib charchatar

Onajonini,

Koʻzlarini yashnatar

Otajonini.

Parilardek goʻzaldir,

Koʻrgan havasda.

Bunchalar ham asaldir,

Zavq olar banda.

Fotimaxon – olov qiz,

Zuhraxon oʻychan.

Biri birisiz yolgʻiz,











Turolmas hech ham.

# JARANGDOR OVOZIMIZ



Muhayyo Mirsaidova she'ri  
Erkin Ro'zimatov musiqasi

Tempo di Valse



Sog' - lom av - lod de - ding bax - tim

Maq - sad la - ring u - lug' - - dur

Biz - lar ziy - rak bo - la - lar - - miz

Ilm ko - nin iz - la - gan

Bo - g'ing - da - gi lo - la - lar - miz

Do - im iq - bol ko'z - la - gan

Meh - ri qu - yosh, bo - la - jon el

Qad - ring yuk - sak - dir a - zal

Bun - day el - da har - kun - bay - ram

Do's - tim, do - i - rang - - ni chal

O - zod yur - tim o - bod yur - tim

Bo - rar yo' - ling qut - lug' - dur

Sog' - lom av - lod de - ding bax - tim

Maq - sad la - ring u - lug' - - dur

Bax - ting bu - tun bo'l - sin mu - dom

Ko'r - ma za - vol, o - na yurt


Kun - dan kun - ga gul - la, yash - na

Top - gin ka - mol, o - na yurt


Bax - ting bu - tun bo'l - sin mu - dom




Ko'r - ma za - vol, o - na yurt




Kun - dan kun - ga gul - la, yash - na




Top - gin ka - mol, o - na yurt




O - zod yur - tim o - bod yur - tim




Bo - rar yo' - ling qut - lug' - dur




Sog' - lom av - lod de - ding bax - tim




Maq - sad la - ring u - lug' - - dur



Sog' - lom av - lod de - ding bax - tim



Maq - sad - la - ring u - lug' - dur



(8) Maq - sad - la - ring u - lug' - dur



Kuy va qo‘shiq bizga hamdam,  
Jarangdor ovozimiz.  
Yurtboshimiz derlar: “Bolam,  
Balanddir parvozimiz!”

Naqorat

Ozod yurtim, obod yurtim,  
Borar yo‘ling qutlug‘dir.  
Sog‘lom avlod – deding – baxtim,  
Maqsadlaring ulug‘dir.

Bizlar ziyrak bolalarmiz,  
Ilm konin izlagan.  
Bog‘ingdagi lolalarmiz  
Doim iqbol ko‘zlagan.

Mehri quyosh, bolajon el,  
Qadring yuksakdir azal.  
Bunday elda har kun – bayram,  
Do‘stim, doirangni chal!

Naqorat

Baxting butun bo‘lsin mudom,  
Ko‘rma zavol, ona yurt.  
Kundan kunga gulla, yashna,  
Topgin kamol, ona yurt!

Naqorat

# O'ZBEK ONA



Muhammad Yusuf she'r'i  
Erkin Ro'zimatov musiqasi

Moderato ♩ = 75

The musical score is written in 2/4 time with a tempo of Moderato (♩ = 75). It consists of a piano accompaniment and a vocal line. The piano part features a rhythmic pattern of eighth notes in the right hand and a steady bass line in the left hand. The vocal line is in a single melodic line with lyrics in Uzbek. The score includes first and second endings for the vocal line.

1.  
Fa - rish - ta - lar fay - zi yo - g'ar  
yuz - la - ring - dan A - ri - ma - sin qu - voch en - di o'z - bek o - na  
2.  
Yur - sang of - tob er - ga - sha - di iz - la - ring dan Of - tob bo' - lib  
nur - soch en - di o'z - bek o - na Kel - di qay - tib yot yurt - lar - dan  
kar - von - la - ring Qo'n - g'i - ro - g'i ko'k - sing - da - gi ar - mon - la - ring  
O' - zing - ni - ki o' - zing yop - gan shir - mon - la - ring Bax - ting kel - di

qiy-g'och en - di o'z - bek o - na O'z - bek o - na O'z - bek o - na  
 O'z - bek o - na Bax-ting kel - di qiy-g'och en - di o'z - bek o - na  
 Ey sen hik - mat di - yo - ri ey  
 sir - li ba - g'ir Ne da - ho - ga yo'l ko'r - sat - ding o' - zing a - xir  
 Te - mur - ga ham al - la ayt - gan o' - zing a - xir Qay - tar qalb - ga  
 i - shonch en - di o'z - bek o - na O'z - bek o - na O'z - bek o - na  
 O'z - bek o - na Qay - tar qalb - ga i - shonch en - di o'z - bek o - na  
 O - zod yurt - da o - bod yurt - da bor - ke - la - jak Hur o'l - ka - ga  
 mu - dom yo'l - dosh yor ke - la - jak Ha - li ne - ne Al - po - mish - lar  
 tu - g'i la - jak Bax-ting bosh - ga gul - toj en - di o'z - bek o - na  
 To' - kil - ma - sin so - ching - da - gi bit - ta to - lang O - mon bo'l sen  
 o - mon bo'l - sin dash - tu da - lang Cho'pon bo - lang deh - qon bo - lang

sul - ton bo-lang Kel du - o - ga qo'l - och en - di o'z - bek o - na

O'z - bek o - na O'z - bek o - na O'z - bek o - na kel du - o - ga

qo'l och en - di o'z - bek o - na O'z - bek o - na O'z - bek o - na

O'z - bek o - na kel du - o - ga qo'l och en - di o'z - bek o - na

*mp*

*p*

Farishtalar fayzi yog'ar yuzlaringdan  
Arimasin quvonch endi, O'zbek ona.  
Yursang, oftob ergashadi izlaringdan,  
Oftob bo'lib nur soch endi, O'zbek ona.

Keldi qaytib yot yurtlardan karvonlaring,  
Qo'ng'irog'i – ko'ksingdagi armonlaring.  
O'zingniki o'zing yopgan shirmonlaring –  
Senga tegmas qirmoch endi, O'zbek ona.

Ey sen hikmat diyori, ey sirli bag'ir,  
Ne dahoga yo'l ko'rsatding o'zing axir.  
Temurga ham alla aytgan o'zing axir,  
Qaytar qalbg'a ishonch endi, O'zbek ona.

Ozod yurtda, obod yurtda bor kelajak,  
Hur o'lkaga mudom yo'ldosh, yor kelajak.  
Hali ne-ne Alpomishlar tug'ilajak,  
Baxting boshga gultoj endi, O'zbek ona.

To'kilmasin sochingdagi bitta tolang,  
Omon bo'l sen, omon bo'lsin dasht-u dalang.  
Cho'pon bolang, dehqon bolang, sulton bolang –  
Kel, duoga qo'l och endi, O'zbek ona!

lash - gan - da Men ti - lim - ni tish - lab tur - gim yap-roq - lar so'y -

lash - gan - da

Ti - ko - nim - ni tir - na-mang deb yan-toq yig' - lab

o' - sar - mish Il - diz - lar - ning ta - bas - su - mi kur - ta - gi - da

ko' - kar - mish Bul - bul bo'l - sang be - dor bo'l po - ying - ga gul

cho' - kar - mish Yu - ra - gim - ni ush - lab tur - gim yul - duz - lar bo'z -


lash - gan - da Men ti - lim - ni tish - lab tur - gim tur - na - lar til -

lash - gan - da Yu - ra - gim - ni ush - lab tur - gim yul - duz - lar bo'z -


lash - gan - da Men ti - lim - ni tish - lab tur - gim tur - na - lar til -

lash - gan - da


Shab-nam tong-ning sha-ro - bi-dir tang-ri qu-yosh -  
ga tut - gay Lab - och - gan - gul bol - a - ri-ning in - ti - zor qiz -  
day kut - gay  
Ik - ki o - shiq to-pish-gan - da bu dun - yo - ni  
u - nut - gay Men di - lim - ni xush - lab tur - gim g'un-cha-lar gul -  
lash - gan - da Men ti - lim - ni tish - lab tur - gim o - shiq-lar sir -  
lash - gan - da Me - ni tosh - lar ting - la - sha - di di - li bor - ga  
o'x - shay - di Yel-lar so - chim si - la - sha - di qo' - li bor - ga  
o'x - shay - di A - yo Mah - mud may - sa - lar - ning ti - li bor - ga  
o'x - shay - di Men ti - lim - ni tish - lab tur - gim may - sa - lar til -  
lash - gan - da Bu dun - yo i - for - dan xush Jiy - da - lar gul -




lash - gan - da Men ti - lim - ni tish - lab tur - gim may - sa - lar til -




lash - gan - da Bu dun - yo i - for - dan xush jiy - da - lar gul -



lash - gan - da Yu - ra - gim - ni ush - lab tur - gim yul - duz - lar bo'z -



lash - gan - da Men ti - lim - ni tish - lab tur - gim tur - na - lar til -



lash - gan - da



Meni toshlar tinglashadi, dili borga o'xshaydi,  
Yellar sochim silashadi, qo'li borga o'xshaydi.  
Ayo do'stlar, maysalarning tili borga o'xshaydi,  
Men dilimni xushlab turgum irmoqlar kuylashganda,  
Men tilimni tishlab turgum yaproqlar so'ylashganda.  
Tikonimni tirnamang, deb yantoq yig'lab o'sarmish,  
Ildizlarning tabassumi kurtagida ko'karmish,  
Bulbul bo'lsang, bedor bo'l, poyingga gul cho'karmish,  
Yuragimni ushlab turgum yulduzlar bo'zlashganda,  
Men tilimni tishlab turgum turnalar tillashganda.

Shabnam tongning sharobidir, Tangri quyoshga tutgay,  
Lab ochgan gul bolarini intizor qizdek kutgay,  
Ikki oshiq topishganda bu dunyoni unutgay,  
Men dilimni xushlab turgum g'unchalar gullashganda,  
Men tilimni tishlab turgum oshiqlar sirlashganda.





Meni toshlar tinglashadi, dili borga o'xshaydi,  
Yellar sochim silashadi, qo'li borga o'xshaydi,  
Ayo Mahmud, maysalarning tili borga o'xshaydi,  
Men tilimni tishlab turgum maysalar tillashganda,  
Bu dunyo ifordan xush jiydalar gullashganda.

# SENINGDURMAN




Erkin Vohidov g'azaliga  
Rustam Mirzohid muhammasi  
Erkin Ro'zimatov musiqasi


Allegro




Bu chin iz - hor bu chin iq - ror




se - ning - dur - man se - ning - dur - man




Bo' - lay so - bit va yo say - yor




se - ning - dur - man se - ning - dur - man



Ma - gar sog' - man va gar be - mor



se - ning - dur - man se - ning - dur - man




Va - tan to tan - da jo - nim bor



se - ning - dur - man se - ning - dur - man

ta - nim xok o'l - sa ham sen yor

se - ning - dur - man se - ning - dur - man



Ra - qib teg - sa ha - mi - yat - ga

di - lim - ni qo'z - g'a - gan or - san

Yi - git - lik so - zi - da bar - avj

va - fo - ni kuy - la - gan tor - san

A - jab ru - hiy sa - fo mav - jud

vu - ju - dim ich - ra - ki yor - san

Ja - hon keng - dir fa - lak keng - dir

yu - rak keng - dir chu sen bor - san

Se - ning - siz ik - ki dun - yo tor

se - ning - dur - man se - ning - dur - man

A - gar xos - man sen - ga mos - man

sen - ga xos - lik u - lug' ne' - mat

Te - ray riz - qim - ni kip - rik - la

qu - cho - g'ing - da qi - lib g'ay - rat

Se - ning ish - qing - ki be - ta' - ma





se - ning meh - ring - ki be - min - nat

Men - ga be - go - na el - lar - da


na - sib gar o'l - sa yuz ro - hat

Che - kay bag' - ring - da - ming o - zor


se - ning - dur - man se - ning - dur - man




Sen - ga man - zur bi - tik bit - sam






sa - daf - lar - din bo' - lak ay - ru




Shu - dir o - liy men - ga mat - lab




bi - roq un - dan bu - yuk or - zu



Sa - daf bag' - ri - da dur yang - lig'



ni - hon tut - gan du - o - yim bu



Bu - gun bor er - ta - yu jis - mim

va - le ru - him u - chun man - gu

Se - ning man - gu - li - ging dar - kor

se - ning - dur - man se - ning - dur - man

A - bad jis - ming - ga mos is - ming

qo - lur jon to - ki - da zar - naqsh

Sen - ga Rus - tam bu tax - mis - ni

u - mid bir - lan e - tib - dur baxsh

Sha - raf dil ko' - zi - ga gar - ding

Su - rish - kim to' - ti - yo ay - lang

Se - ning ish - qing bi - lan yon - dim

ke - tar jo - nim - da bu o - tash

Se - ning - dur - man ya - na tak - ror

se - ning - dur - man se - ning - dur - man

Se - ning - dur - man ya - na tak - ror  
 se - ning - dur - mam se - ning - dur man -

Bu chin izhor, bu chin iqror: seningdirman, seningdirman,  
 Bo'lay sobit va yo sayyor, seningdirman, seningdirman,  
 Magar sog'man va gar bemor – seningdirman, seningdirman,  
 Vatan, to tanda jonim bor, seningdirman, seningdirman,  
 Tanim xok o'lsa ham, sen yor, seningdirman, seningdirman.

Raqib tegsa hamiyatga, dilimni qo'zg'agan orsan,  
 Yigitlik sozida baravj vafoni kuylagan torsan,  
 Ajab ruhiy safo mavjud vujudim ichraki yorsan,  
 Jahon kengdir, falak kengdir, yurak kengdir – chu sen borsan,  
 Seningsiz ikki dunyo tor, seningdirman, seningdirman.

Agar xosman – senga mosman, senga xoslik – ulug' ne'mat,  
 Teray rizqimni kiprik-la quchog'ingda qilib g'ayrat,  
 Sening ishqingki betama', sening mehringki beminnat,  
 Menga begona ellarda nasib gar qilsa yuz rohat,  
 Chekay bag'ringda ming ozor, seningdirman, seningdirman.

Senga manzur bitik bitsam, salaflardan bo‘lak, ayru,  
Shudir oliy menga matlab, biroq undan buyuk orzu,  
Sadaf bag‘rida dur yanglig‘ nihon tutgan duoyim bu:  
Bugun bor, erta yo‘q jismim, vale ruhim uchun mangu  
Sening manguliging darkor, seningdirman, seningdirman.

Abad jismingga mos isming qolur jon toqida zarnaqsh,  
Senga Rustam bu taxmisin umid birlan etibdur baxsh,  
Sharaf – dil ko‘ziga garding surishkim, to‘tiyo aylash,  
Sening ishqing bilan yondim, ketar jonimda bu otash,  
Seningdirman, yana takror seningdirman, seningdirman.



GLOSSARIY

**Avj** – musiqa ijrochiligida eng yuqori tovushlar ijro qilinadigan nuqta. Osmon ko‘k, yuksalish va uning eng yuqori cho‘qqisi. Maqom cholg‘u kuy va aytimlarning yuqori pardalardagi eng rivojlangan darajasi.

**Ajam** – Arablardan tashqari xalqlarning musiqasi, maqom shu‘basining nomi.

**Aytim yo‘li** – Xorazm maqomlarida aytim (ashula)lar bo‘limining umumiy nomi. Shuningdek, bu bo‘lim (manzum) deb ham ataladi.

**Alteratsiya belgilari** – tovushlarni yarim ton yoki bir ton ko‘tarib, tushirib ijro qilinishi va ko‘tarilgan yoki tushirilgan

tovushlarni o‘z holiga qaytarib bekor qiluvchi belgilar hisoblanadi. Ular – diez, bemol, dubl-diez, dubl-bemol, bekar deb yuritiladi..

**Ansambl** – birgalikdagi ijro; ya‘ni kuylash yoki cholg‘u asbobida chalish (masalan, duet, terstet, trio, kvartet, kvintet va h.k.). orkestr ham ansamblning bir ko‘rinishi bo‘lib hisoblanadi.

Ansambl – uyg‘unlik, jo‘rnavoqlik ma‘nolarini anglatadi.

**Applikatura** – musiqiy sozlarni ijro qilishda qo‘l barmoqlarining qulay tanlanishi. Nota ostida yoki ustida raqamlar bilan belgilanadi.

**Aralash o‘lchovlar** – ikki va undan ortiq bir xil bo‘lmagan oddiy o‘lchovlarning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi.

**Bas** – 1. Erkaklarning past tovushi. 2. Bu nom bilan qo‘shilib keluvchi cholg‘ular mavjud. Masalan: g‘ijjak bas, qobiz bas, dutor bas va h.k.

**Bas kaliti** – kichik oktava *fa* notasi nota yo‘lining to‘rtinchi chizig‘ida joylashishini bildiruvchi (kalit) belgi.

**Bastakor** – bu forscha so‘z bo‘lib “basta” bog‘lash ma‘nosini, “kor” ishlash mazmunini bildiradi.

**Bayoz** – bir ashulachining repertuariga kiruvchi ashulalar aks etgan risola shunday nomlanadi.

**Bayot** – turk qabilalaridan birining, shuningdek, O‘n ikki maqom shu‘basining nomi. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarida besh qismli ashula turkumlarining nomi.

**Besh bosqichli lad** qarang: pentatonika.

**Bekar** – diez yoki bemol belgisining harakatini bekor qiluvchi alteratsiya belgilaridan biri.

**Bemol** – tovushni yarim tonga pasaytiruvchi belgi.

**Bozgo‘y** – maqom cholg‘u kuylarida (Tasnif, Tarje va b.) o‘zgarmay takrorlanuvchi kuy tuzilmasi.

- Bosqich** – lad tovushlarining tartib belgisi. Rim raqamlari bilan belgilanadi.
- Buzurg** (Buzruk) – buyuk, katta, O‘n ikki maqom tizimi va Shashmaqomdagi maqomning nomi.
- Busalik** (Abu Salik) – mashhur 12 maqomlardan birining nomi.
- Daromad** – maqom ashula yo‘llarining quyi pardalardagi boshlanish qismi
- Diapazon** – ma‘lum ovoz yoki cholg‘u asbobining tovush hajmi; ushbu ovoz yoki cholg‘u asbobining eng past va eng yuqori tovushlari orasidagi interval bilan aniqlanadi.
- Diatonik gamma** – biron bosqichi ham alteratsiya belgilari yordamida o‘zgartirilmasdan takrorlanadigan gamma.
- Diatonik intervallar** – ladning asosiy diatonik bosqichlari (sof, katta, kichik, uchtonlik) da uchraydigan intervallar.
- Diatonik ladlar** – alteratsiyalanmagan, ya‘ni biron bosqichi xromatik pasaytirilmagan yoki ko‘tarilmagan lad (tabiiy major va minor, shuningdek, xalq musiqasi ladhari (doriy, frigiyy, lidiyy, miksolidiyy, besh bosqichli ladlar).
- Dinamik belgilar (nyuanslar)** – musiqa asari ijrosi jarayonida tovush kuchining o‘zgartirilishi.
- Doriy ladi** – xalq musiqasida uchraydigan o‘ziga xos lad.
- Tabiiy minordan VI bosqich ko‘tarilganligi bilan (doriy sekstasi deb ham ataladi) farq qiladi.
- Dugoh** – ikki joy, ikki o‘rin, ikki parda; O‘n ikki maqom tizimida – shu‘ba nomi, Shashmaqomda to‘rtinchi maqom nomi.
- Dunahr** – maqomlarda boshlang‘ich kuy yoki aytim tuzilmasini yuqori pardalarda takrorlanishi.
- Gulyor-Shahnoz** – besh qismli Farg‘ona-Toshkent maqom ashula yo‘lining umumiy nomi. 1-qismi – Gulyor, 2-qismi – Shahnoz, 3-qismi – Chapandozi Gulyor, 4-qismi – Ushshoq va 5-qismi Qashqarchai Ushshoq deb yuritiladi.
- Gardun** – falak gardishi, taqdir, qismat; Shashmaqom cholg‘u bo‘limidagi muayyan qism va doyra usulining nomi.
- Hijoz** – 12 maqomdan birining nomi.
- Hofiz** – yodda saqlamoq ma‘nosini anglatadi.
- Husayniy** – 12 maqomdan birining nomi, Shashmaqomdagi ma‘lum shu‘ba nomi.
- Interval** – birdaniga yoki ketma ket olingan ikkita tovush munosabati. Pastki tovush asos, yuqorigi tovush uning cho‘qqisi deb ataladi.
- Iroq** – Arabistondagi ma‘lum mamlakat nomi, shuningdek 12 maqom va Shashmaqom tarkibidagi maqom nomi.
- Isfahon** – 12 maqomdan birining nomi.

**Jo'rnavor** – ma'lum bir ijro qilinayotgan asarga jo'r bo'lib, uni turli garmonik ko'p ovoqli tovushlar bilan to'ldirib turish.

Jo'rnavor fortepiano, orkestr, ansambl yoki turli simfonik orkestrlar bo'lishi mumkin.

**Kuy** – ohang, nag'ma.

**Legato** – (lotinchada legato – “bog'lab”, “silliqlab” ma'nolarini anglatadi) bir tovushdan ikkinchi tovushga to'xtovsiz o'tish yoki har xil balandlikdagi ikki va undan ortiq tovushlarni kamon bilan uzmasdan ijro qilish shunday nomlanadi. Ijro qilinadigan tovushlar xuddi liga tarzida pastdan yoki yuqoridan qavscha shaklidagi egri chiziq bilan bog'lanadi.

**Liga** – (lotinchada liga – bog'layman ma'nosini anglatadi) bir xil balandlikdagi ikki va undan ortiq tovushlarni uzmasdan ijro qilish shunday nomlanadi. Va notalarni pastdan yoki yuqoridan qavscha shaklidagi egri chiziq bilan bog'lash orqali amalga oshiriladi.

**Lidiy ladi** – xalq musiqasida uchraydigan o'ziga xos lad. Tabiiy majordan IV bosqichning pasayishi bilan farq qiladi.

**Ladning bosh (asosiy) bosqichlari** – birinchi bosqich (tonika), beshinchi bosqich (dominanta) va to'rtinchi bosqich (subdominanta).

**Lad** – musiqiy asarlarning parda tizimini bildiradi.

**Laddagi beqaror intervallar** – har ikkala tovushi ham (yoki bir tovushi) beqaror, noturg'un bo'lgan, ya'ni tonika uchtovushligiga kirmaydigan tovushlardan tuzilgan intervallardir.

**Manzum** – Xorazm maqomlari aytim bo'limining umumiy nomi. Shuningdek, bu o'rinda “aytim yo'li” ham iborasi ham ishlatiladi.

**Mansur** – Xorazm maqomlarida cholg'u kuylar bo'limining umumiy nomi. Shuningdek, bu o'rinda “chertim yo'li” iborasi ham ishlatiladi.

**Maqom** – o'rin, joy, daraja, parda; muayyan pardalarning mukammal uyushmasi va shu asosda ishlangan cholg'u kuy va ashulalar majmuasi.

**Melizmlar** – kuyning alohida tovushlarini bezash uchun ishlatiladigan kuychan figuralar.

**Melodiya (kuy)** – musiqiy mazmunning bir ovozda (tovushda) ifodalanishi.

**Mextar** – usta, unvon ma'nolarini anglatadi.

**Miyonxat** – maqom ashula yo'llarining o'rta pardalarda ijro etiladigan bo'lagi.

**Musiqashunos** – musiqa ilmi bilan shug'ullanuvchi olim.

**Muxayyar** – tanlab olingan. O'n ikki maqom va Shashmaqomda muayyan shu'ba nomi.

**Muxammas** – beshlangan; Shashmaqom cholg'u bo'limidagi muayyan qism va doyra usulining nomi.

**Mushkilot** – qiyinchiliklar; Shashmaqom cholgʻu kuylar boʻlimining umumiy nomi.

**Moʻgʻulcha** – Shashmaqom ikkinchi guruh shuʻbalaridan birining nomi.

**Navo** – kuy Oʻn ikki maqom va Shashmaqomda maʼlum maqom nomi. Shuningdek Fargʻona – Toshkent musiqa uslubidagi surnay yoʻlining ham nomi.

**Namud** – koʻrinish, namoyon boʻlish. Maqom ashula yoʻllarining avjlarida muayyan shuʻba kuy tuzilmalarining kelishi.

**Nasr** – koʻmak, zafar, gʻalaba; Shashmaqom ashula boʻlimining umumiy nomi shuningdek, Shashmaqom ashula boʻlimidagi maʼlum shuʻba nomi.

**Naqsh** – bezak, oʻrta xajmli ashula nomi. Xorazm maqomlarining aytim yoʻllari tarkibidan oʻrin olgan va koʻproq taronalar vazifasida keladi.

**Nola** – sozanda asarni ijro etayotgan jarayonida maʼlum bir tovushni oʻziga xos titratib ijro qilishi.

**Nota** – tovushning balandligi va choʻzimini koʻrsatish uchun ishlatiladigan belgi.

**Nota yozuvini qisqartirish belgilari** – nota yozuvini qisqartiruvchi belgilar. Repriza, tremolo, melizmlar vositasida nota yozish osonlashadi.

**Panjgoh** – besh joy, besh parda; Oʻn ikki maqom tizimidagi besh pogʻonali shuʻba nomi.

**Peshrav** – oldinga intiluvchi; yuksalma xarakterning ohanglar asosida ishlangan maʼlum kuy shakli. Xorazm maqomlarining chertim yoʻllari tarkibidan oʻrin olgan kuy nomi.

**Rohaviy** – 12 maqomdan birining nomi.

**Rok** – hindcha Raga soʻzining oʻzgargan talaffuzi; Buzruk maqomining ikkinchi guruh shuʻbasi.

**Rost** – toʻgʻri, chin, xaqiqiy; 12 maqomdan birining, shuningdek, Shashmaqom tizimidagi maqom nomi.

**Savt** – tovush, ohang, aks sado; Shashmaqom ikkinchi guruh, shuʻbalaridan birining nomi.

**Saraxbor** – bosh xabarlar, bosh mavzu; Shashmaqom ashula boʻlimidagi birinchi shuʻba nomi.

**Saqil** – ogʻir vazmin; Shashmaqom mushkilot boʻlimiga kiruvchi cholgʻu asar nomi va doyra usuli nomi.

**Segoh** – uch joy, uch parda; Oʻn ikki maqom tizimidagi shuʻba, shuningdek, Shashmaqom va Fargʻona-Toshkent maqomlarida keladigan maʼlum maqom nomi.

**Suporish** – topshirish; maqom tarkibiy qismlarining yakunlovchi xotima qismi.

**Skripka kaliti** – birinchi oktava sol notasi nota yoʻlining ikkinchi chizigʻida shartli joylashganligini koʻrsatuvchi belgi.

**Sozanda** – 1. Biror musiqiy asarni cholgʻuda ijro etuvchi kishi. 2. Buxoro musiqasida “Buxorcha” turkumini ijro etuvchi hofiza-xonanda ham shunday nomlanadi.

**Talqin** – pand nasihat; Shashmaqomda maʼlum shuʼba va doyra usulining nomi.

**Tarona** – qoʻshiq oxang, ashula; maqomlarda asosiy aytim yoʻllari (Saraxbor, Tani maqom, Talqin va b.) orasida qoʻllaniladigan va bir aytimdan ikkinchi asosiy aytimga oʻtishda bogʻlovchi vazifasini bajaruvchi ixcham shaklli ashula, koʻproq ruboiylar bilan aytiladi.

**Tasnif** – xona va bozgoʻy kuy tuzilmalari asosida ishlangan mukammal shaklli cholgʻu asari.

**Tasodifiy alteratsiya belgilari** – bevosita nota oldidan qoʻyiladigan alteratsiya belgilari. Anʼanaviy ijro bezaklarida juda koʻp qoʻllaniladi.

**Takt oʻlchovi** – nota yoʻli boshida, drob shaklida qoʻyilgan raqamlar. Uning surati taktdagi hissalar sonini, maxraji esa ularning choʻzimini bildiradi.

**Turk** – maqom ashula yoʻllarida keng qoʻllaniladigan avjlardan birining nomi.

**Uzzol** – sakrash, pastga tushish; Oʻn ikki maqom va Shashmaqomda maʼlum shuʼba nomi.

**Usul** – oʻzgarmas oʻlchov tuzilmasidir.

**Ushshoq** – Oshiqlar; Oʻn ikki maqomdan birining nomi. Shashmaqomda shuʼbalar tarkibida keladi.

**Xona** – uy; nisbiy tugal shaklli kuy tuzilmasi. Kuyning avji tomon rivojida muhim oʻrin tutadi.

**Xonanda** – ashula va qoʻshiqni ijro etuvchi hofiz va hofiza.

**Zangula** (qoʻngʻiroq) – 12 maqomdan birining nomi.

**Zebo pari** – avjning nomi, maqom ashula yoʻllarida qoʻllaniladi.

**Zirafkand** – 12 maqomdan birining nomi. Kuchak deb ham ataladi.

**Zatakt** – toʻliqsiz takt bilan boshlanadigan musiqa asari.

**Shashmaqom** – Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq nomlari bilan mashhur olti xil mukammal parda uyushmasi; mazkur pardalar uyushmasi va muiyyan doyra usullari asosida ijod etilgan cholgʻu kuy va ashula yoʻllari turkumi.

**Chorgoh** – toʻrt joy, toʻrt oʻrin, toʻrt parda; Oʻn ikki maqom tizimidagi toʻrt pogʻonali shuʼba, shuningdek, Shashmaqom turkumidagi shuʼba hamda Fargʻona-Toshkent uslubidagi maqom yoʻllarining nomi.

Inson hamisha ko'zni yashnatguvchi go'zallikka, qalbni qalqituvchi ohanglarga oshufta. Chunki ohang sehrida, dilbar qo'shiqlarda ona allasining oromi bor. Asrlar osha yashab kelayotgan xalq laparlari, milliy san'atimizning mangu faxri bo'lgan maqom qo'shiqlari qalbgga qanoat, ruhga quvvat, shuurimizga rohat baxsh etadi.

Shu bois ulug' ajdodlarimizning bu borada qoldirgan boy merosi, ijro uslubi, ijod maktabi san'atkor bo'lmoqni niyat qilgan iste'dodli yoshlarimiz uchun dasturilamal, yo'lchi yulduz bo'lib nur tutib turibdi. Bu go'zal an'analarni davom ettirish, ularning tom ma'noda egasiga aylanish soha istiqboli deya qaralayotgan avlod vakillaridan ham fidoyilikni talab qiladi, albatta. Zotan, qo'shiq ko'kdan tushmaydi, balki ko'nglimizdan buloqdek qaynab chiqadi. Ko'ngilning qo'shsarboni bor – ular aql va muhabbatdir.

O'zbekiston xalq hofizi, kamtar, jafokash, fidoyi san'atkor Erkin Ro'zmatov milliy qo'shiqchiligimizda o'z o'rniga, o'z ovozigga, mubolag'asiz aytish mumkinki, o'z maktabiga ega ustoz ijodkorlarimizdan bittasidir. Qo'lingizda turgan mazkur kitob esa ana shu daryodil hofizning murabbiy sifatida o'z toliblariga atagan so'lish bilmas guldastasi, qolaversa, millatparvarligining, san'atga, maqomchilikka beqiyos sadoqatining timsolidir.

Binobarin, yaxshi ustoz faqat yaxshi shogirdlar yetishtirib qolmay, balki izida kelajak avlodlari o'qib-o'rganishi zarur bo'lgan namuna maktabini ham qoldira oladi. O'zidan boy ma'naviy-ma'rifiy boylikni meros qoldirish uning hayotiy muddaosiga aylanadi. Erkinjon bu borada o'nlab safdoshlariga ko'zgu tutayotganini ham istifoda etish joiz...

Maqom san'ati — millit ma'naviyati va ma'rifati, xalq dardining ohangi, sadosi, degim keladi. Ular so'z vobastaligida yanada yorqin namoyon bo'ladi. Nega maqomlarimizni tinglaganda, yetti yot begona, ya'ni tilu dinimizdan, qadriyatlarimiz tariximizdan baxabar yoki yiroq yevropaliklar ham sel bo'ladi? o'rnidan turib, uzoq qarsak chalishadi?

Avvalo, qaysi millatga mansub bo'lmasin, inson – baribir inson. Unda Parvardigor ato etgan qalb ne'mati bor. Bu qalb dardu quvonchni his etadi. Tafakkur degan ne'mat bor – u o'tmish, bugun va kelajakni idrok etadi, dard bilan ong to'lqinlarini sintez qiladi. Shu bois musiqani, qo'shiqni tushunish uchun tarjimon talab etilmaydi – u to'g'ridan-to'g'ri ko'ngilga kirib borib, uni zab etadi!

Kezi kelganida aytish kerak, millatimizning bu betakror boyligini xalqning chinakam mulkiga aylantirishda, "Shashmaqom", ya'ni, olti maqomni jamlab, ularning nota yozuvini yaratish hamda mangu yashab qolishi uchun butun faoliyati va hayotini baxshida qilgan buyuk san'atkor Yunus Rajabiy xizmatlari haybati,

salobatidan hamon lol qolamiz, hayratga cho‘mamiz – bunday mehnatu mashaqqat qoshida ta‘zim bajo keltiramiz!

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning o‘z faoliyatini boshlagan ilk kunlardan oq unutilib ketayozgan maqom san‘atini qayta tiklash, millat qalbiga qaytarish yo‘lidagi sa‘y-harakati, bu masalada qabul qilgan qaroru farmonlari o‘tgan yetti yilda o‘z mevasini berib turibdi. Zero, Yurtboshimiz ta‘kidlaganidek: **“Agar biz asl, haqiqiy san‘atni bilmoqchi, o‘rganmoqchi bo‘lsak, avvalo mumtoz maqom san‘atini bilishimiz, o‘rganishimiz kerak. Agar biz san‘atni, madaniyatni ko‘tarmoqchi bo‘lsak, avvalo mumtoz maqom san‘atini ko‘tarishimiz kerak. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o‘tib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur”**.

O‘tgan yil poyonida bo‘lib o‘tgan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida ham davlatimiz rahbari maqom san‘atini o‘qitishni o‘rta maktablardan boshlash zarur, degan dolzarb tashabbusni ilgari surdi.

Albatta, maqomlarimizni yoshlar shunchaki eshitib, tub mazmunini chaqolmaydi. Buni tabiiy qabul qilamiz. Sababi bu asarlar bir kishining tafakkuridan toshgan yaratiq emas, balki asrlar silsilasidan o‘tib, millat va bashariyatning eng yaxshi ma‘rifiy-madaniy yutuqlari hamda dardini o‘zida jamlab kelayotgan nihoyatda teran san‘at ustunlaridir. Maqomlarimizni yoshlarga emas, hatto ko‘pni ko‘rgan ayrim yoshi kattalarning o‘zi ham teran idrok etolmaydi. Maqomni anglash uchun qalbda “Men o‘zbekman!” degan faxr va muhabbat olovi alanganib turishi shart! Qolaversa, ularni yoshlarga sodda va xalqchil tarzda tushuntirish yo‘llarini topish lozim.

Erkin Ro‘zmatov ana shu murakkab masalaga yechim izlab, bu borada birinchilardan bo‘lib eshik ochayotgan ustoz san‘atkor bo‘lmoqda! Bu yo‘lda jiddiy ter to‘kishning o‘zi kamlik qilgani rost. Balki bu izlanishlar jarayonida u joni va umrining kattagina qismini baxshida aylaganiga ishonamiz. U faqat Toshkenti azimdagi mutaxassislar bilan emas, balki viloyat va shaharlarimizdagi san‘at maktab jamoalari bilan hamkorlikda, birgalikda ishladi. Xalqimizning san‘at jabhasida yaratgan eng boy ma‘naviy-madaniy merosidan, xalq tan olgan bastakorlar ijodiy yutuqlaridan foydalandi. Bugungi kunda faoliyat yurutib kelayotgan O‘zbek milliy maqom san‘ati markazidagi jonkuyar o‘z sohasini yetuk tadqiqotchi olimlari hamda ansambl ijrochi ustozlari-yu, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti professor o‘qituvchilari bilan ham katta izlanishlar olib borilganligini sezishimiz mumkin.

Fidoi san‘atkor Erkin Ro‘zmatov milliy san‘atning katta ustozlari Jo‘raxon Sultonov, Ma‘murjon Uzoqov, Tavakkal Qodirov, Fattoxon Mammadaliyev, Orif

Alimahsumov, Orifxon Xotamov, Mahmudjon Tojiboyev kabi ustozlarni ijodiga yondoshgan holda ko‘plab asarlarni nazira qilgan. Milliy ijrochilikni kaminani qalamiga mansub, ko‘plab she‘riy baytlarni, milliy ruh, serjilo ijro, milliy an‘analarga sug‘ortirilgan holda ko‘plab asarlar bastalab boyitib kelmoqda. Hassos bastakor “Meni toshlar tinglashadi”, “Chertib aytsak”, “Ona”, “Tilab tilab”, “Tilmoch kerakmas”, “Daryolarni toshirgan” kabi asarlarini hamkorligimizda yozilganligin alohida ta‘kidlab o‘tmoqlikni lozim topdim. Ijodkor bilan hamkorlikda ishlar ekanmiz, she‘r, kuy hamda ijro bir-biri bilan bir butunlikda garmoniyalashuvi katta ahamiyatga egaligiga yana bir bora amin bo‘lganman. Milliy san‘atimizni mumtoz ijrochilgi ham adabiyot va musiqa o‘zaro mukammal tarzda bog‘langanligini ko‘rishimiz mumkin.

Ushbu o‘quv qo‘llanmasini yozish jarayonida adabiyot va she‘riyat mavzularida hamfikir yuritib yosh-u, kattalarga ham tushunib anglashlariga qulayliklar yaratganligi, zamon bilan hamnafas bo‘lib, nota yozuvi hamda matn mujassamlashtirilgan mazkur bebaho qo‘llanmaga elektron ijro yozuvi ham ilova qilindiki, bu muallimlarga ham, o‘quvchi va o‘rganuvchilarga ham ayni muddao bo‘lishi muqarrar.

Muhimi, mazkur kitob Erkin Ro‘zmatov jamlagan maqom san‘atining fidoyi ustozlari, yana dillariga ulkan san‘atkor bo‘lishdek toza tilaklarni joylagan iste‘dodli yoshlarimizning beg‘araz, beminnat, balki tahsinga sazovor sa‘y-harakatlari mahsulidir.

So‘zimni muxtasar qilishdan oldin aytmoqchimanki, maqom san‘atidan murod – ezgulik! Bu ezgulik – tinchlik va do‘stlik, millatlararo totuvlik, ozodlik va obodlik, qanoat va halollik, mardlik va adolat targ‘ibotidir. Maqom bu – chinakam millatsevar, ma‘rifatparvar san‘atkorlarning o‘z Vatani, xalqiga bo‘lgan muhabbati, sadoqatining sadosidir. Maqom bu – millatga jonfido bo‘lganlarning o‘zbekka, o‘z millatiga – Yangi O‘zbekistonga bo‘lgan ulug‘ xayrixohligi, kamarbastaligi jarangidir!

Maqom san‘ati rivoji yo‘lida yozilgan, minglab yuraklarda millat tomirlariga tutash yana bir musiqiy olamni yaratishga qaratilgan ushbu ezgulik kitobi barchamizga muborak bo‘lsin!

**Mahmud TOIR**

*O‘zbekiston xalq shoiri*



## MUNDARIJA

Muallifdan.....	3
Kirish.....	7
Maqom yakka xonandalikning professional ijrochiligi asoslari.....	9
Yakka xonandalik yoʻnalishida ansambl ijrochiligi sinfi, uning mazmuni va uslublari.....	11
Taʼlimda milliy mumtoz asarlardan foydalanish.....	14
Yakka xonandaning faoliyat asoslari.....	16
Maqom.....	20
Qashqarchai rok.....	24
Soqiynomayi rok.....	27
Ufari rok.....	30
Qashqarchayi savti kalon.....	32
Soqiynomayi savti kalon.....	35
Ufari savti kalon.....	38
Qashqarchayi savti kalon.....	43
Soqinomayi mustazodi navo.....	45
Ufari mustahzodi navo.....	47
Bayot II.....	50
Bayot III.....	53
Bayot V.....	58
Sarahbori dugoh 2-taronasi.....	60
Saraxbori dugoh 4-taronasi.....	62
Sarahbori dugoh 5-taronasi.....	64
Sarahbori dugoh 6-taronasi.....	67
Dugohi Husayniy 1-taronasi.....	69
Dugohi Husayniy 4-taronasi.....	74
Dugohi Husayniy 5-taronasi.....	77
Dugohi Husayniy 6-taronasi.....	80
Sarahbori segoh 2-taronasi.....	82
Sarahbori segoh 3-taronasi.....	85
Sarohbori segoh 5-taronasi.....	88
Sarohbori segoh 6-taronasi.....	90
Sarohbori segoh suporishi.....	92
Ona yurtim.....	93
Sabo bilan.....	97

Nayning navosi.....	101
Oybuloq.....	104
Bog'ishamol.....	107
So'lim bahor.....	111
Ona tilim.....	116
O'rik gullaganda.....	121
Qishlog'imga xat.....	125
Ustozlar.....	128
Andijonim.....	131
Davraga kel.....	133
Yoshligim kel.....	135
Dilxiroj.....	137
Namangan tanavori.....	142
Olam chirog'i.....	145
Diyorimsan.....	148
Onajonim.....	152
Qiz qo'shig'i.....	156
Fotimaxon, Zuhraxon.....	159
Jarangdor ovoqimiz.....	163
O'zbek ona.....	168
Meni toshlar tinglaydi.....	172
Seningdirman.....	177
GLOSSARIY.....	184
Maqomdan murod – ezgulik. <b>O'zbekiston xalq shoiri Mahmud TOIR</b> .....	189

Erkin RO'ZIMATOV

# YANGI MAQOM NAMUNALARI

(Ixtisoslashtirilgan maqom, musiqa va san'at maktablari uchun)

O'QUV QO'LLANMA

I qism kitob

Muharrir V. Hidoyatova

Musahhih H. Xo'jayeva

Texnik muharrir V. Demchenko

Kompyuterda tayyorlovchi N. Tolipova

Bosishga ruxsat etildi 16.08.2024. Bichimi 60x841/8.

Times New Roman garniturasida. Sharli b.t. 17,75.

Adadi 100 dona

"TIPOGRAFF" bosmaxonasida chop qilindi.

Toshkent, Beruniy ko'chasi 83 uy.

ISBN 978-9910-656-17-0



9 789910 656170